



ОБРАЗОВАНИЕ, НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал



*Выпуск журнала № 45
Часть-3_Май -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Май - 2024 год

ЧАСТЬ - 3



ODAM SAVDOSI JINOYATLARINI OLDINI OLISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING O'RNI

Shermatov Sardorbek G'anisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lif

, „Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati”

3-o'quv kursi 317-guruh kursanti

Annotatsiya: odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganish, taxlil kilish, oldini olish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chikilgan.

Tanlangan mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizni demokratik yangilash eng muhim yo'nalishlar – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi

Ta'kidlash keraki, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ta'kidlash joizki, odam huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun mamlakatimizda xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementasiya qilish yo'lida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2008 yilning 7 yanvarida O'zbekiston Respublikasining «Inson huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonuni qabul qilinishi davlat tomonidan yosh avlodga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni, kelajakka sog'lom odamni tarbiyalab voyaga yetkazish, shu bilan bir qatorda, odam huquqlarini himoya qilish masalasini yangi darajaga ko'tarishga zamin yaratdi. Biroq davlat va jamiyatda odamni jismonan va ruhan qo'llab-quvvatlash borasida o'tkazilayotgan islohotlarga qaramasdan, ularning tabiiy va shaxsiy huquqlariga nisbatan tahdidlar saqlanib qolmoqda. Ana shunday tahdidlar turkumiga kiruvchi jinoiy qilmishlardan biri bu odam savdosidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (keyingi o'rnlarda BMT)ning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili 600–800 ming nafar ayol va odam aldov yo'li bilan chet ellarga olib ketilayotgan bo'lib, bu Odam savdosi jinoyati salmog'ining 80 foizini tashkil qiladi. Ushbu ma'lumotlar rasmiy xarakterga ega bo'lib, BMT mazkur statistikani, a'zo davlatlarning odam huquqlari bo'yicha milliy markazlari tomonidan berilgan rasmiy hisobotlari asosida shakllantirgan. Shu bilan birga, ta'kidlab o'tish joizki, odam savdosi jinoyati latentlik xususiyatiga ega bo'lib,

aksariyat jabrlanuvchi odamlar huquqni muxofaza qiluvchi organlari tomonidan odam savdosi jinoyati jabrlanuvchisi sifatida e'tirof etilmagan.

Bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyoti, xususan ichki ishlar organlari faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri, huquqbuzarliklarning oqibati bilan qarshi kurashish emas, balki ularning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish, har bir jinoyatningadolati va haqiqatini ta'minlashdan iboratdir. Shuning uchun ham, huquqbuzarlik-larning barvaqt oldini olishga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aynan shu sababli hozirda Ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning o'zida hal etish belgilandi.²

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda odam savdosi bilan bog'liq muammoning dolzarbligi quyidagilardan kelib chiqadi:

- jahondagi iqtisodiy globallashuv va davlatlar o'rtasidagi jiddiy moliyaviy nomutanosiblik sharoitida arzon ishchi kuchi, xususan, odam resursiga nisbatan bo'lgan talab va taklifning ortib borayotganligi;

- kriminal olamda aynan odam savdosiga ixtisoslashgan professional uyushgan jinoyatchilikning avj olayotganligi;

- odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlarning taktikasi axborot-kommunikasiya va texnologik taraqqiyot rivoji bilan bирgalikda hamohang ravishda rivojlanib borayotganligi;

- odam savdosi jinoyatchiligidan majburiy va shahvoniy ekspluatasiyada foydalanish bilan bирgalikda, ularni noan'anaviy transchegaraviy tahdidlarda, ya'ni qurolli to'qnashuvlarda, tilamchilikda, odam organlari transplantasiyasida foydalanish hamda diniy ekstremizm, terrorizm va narkotik moddalarining noqonuniy aylanuvida qo'llash shakllarining namoyon bo'layotganligi;

- O'zbekistonda odam savdosi jinoyatchiliginı oldini olishning ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatining yuzaga kelayotganligi.

Odam savdosining uyushgan transmilliy jinoiy faoliyat sifatida asosiy farq qiluvchi xususiyati bo'lib, uni sodir etish oqibatida jismoniy shaxslar tovarga aylanadilar. Ya'ni odamlar sotib olish yoki sotib yuborish, hadya qilish, topshirish uchun obyekt bo'lishlari mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ular jonsiz buyumlarga tenglashtiriladilar. Jabrlanuvchilar asosan o'z yurtidan boshqa davlatlarga tranzit qilish, chegaralardan o'tkazish orqali sotib yuboriladi. Ko'rinish turibdiki, ushbu jinoyat

chevara bilmaydi, bu shaxslarga nisbatan barcha yoki ayrim ko'rinishdagi huquqiy egalik alomatlari amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz odam huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan say-harakatlarga sodiqlikni namoyon qilgan holda, odam savdosiga qarshi kurashishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlarning qoidalarini to'la qo'llab-quvvatlab, ularning deyarli barchasini ratifikasiya qildi. Shuningdek, mustaqillik yillarida davlatimiz xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik (xususan, odam savdosi)ning xavfli ko'rinishlariga qarshi kurashish haqida 29ta shartnoma va kelishuvlarni imzoladi³.

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarga kriminologik tavsif berish, shuningdek, mazkur jinoyatlarni oldini olish soxasidagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- odam savdosi jinoyati uchun javobgarlik belgilangan milliy normalarning shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish;

- odam savdosi jinoyati uchun javobgarlikni og'irlashtiradigan va alohida og'irlashtiradigan holatlarga oid muammolarni tadqiq etish, hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqish;

- odam savdosi jinoyatini kvalifikasiya qilish, o'xshash jinoyatlardan farqlash, qonun normalarini xalqaro huquqiy hujjatlar talablariga yanada muvofiqlashtirish borasidagi masalalarni tadqiq etish hamda ularni bartaraf etishga imkon beradigan taklif va xulosalar ishlab chiqish;

- odam savdosi jinoyati uchun javobgarlik belgilangan normalardagi kolliziyalarni tadqiq etish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqish; xorijiy davlatlar ilg'or tajribasi va hozirga qadar qimmatini yo'qotmagan o'tmish tajribasini o'rganish;

- odam savdosi jinoyatining kriminologik tavsifini yoritish, ushbu jinoyatga imkon berayotgan omillarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va sharoitlarini o'rganish, uni oldini olish faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lган masalalar.

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarning sabab va sharoitlarini o'rganish, uni oldini olish faoliyatini tashkil etish, takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish usullari va yo'nalishlari xisoblanadi .

Tadqiqotning normativ asosini – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, tadqiqot mavzusiga tegishli bo'lган O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, IIVning buyruq, ko'rsatma, farmoyishlari, qo'shma buyruqlar,

umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari va boshqa idoraviy-me'yoriy xujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Izlanish ishida analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar tushunchasi, ularning oldini olish profilaktikasini tashkil etish yo'naliishlari, ahamiyati, mazmuni ochib berildi hamda ushbu faoliyatni tashkil etishni bo'yicha muammo va kamchiliklar o'rganilib, takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatchiligining sabab va sharoitlarini o'rganish, taxlil kilish xamda oldini olish faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish chora-tadbirlari borasidagi muammo va kamchiliklarni o'rganish hamda faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'quv jarayonida hamda amaliy faoliyatda foydalanish mumkin.

XULOSA; Hozirgi vaqtda yoshlарimizning ko'pchiligi odam savdosi qurboni bo'lib qolmoqda, bilib bilmay turli ekstremistik oqimlarga qo'shilib ketmoqda, va chet davlatlarda qo'poruvchilik harakatlarini sodir etmoqda va buning natijasida dunyo mamlakatlari oldida O'zbekiston nomini qora rangga bo'yamoqda va buning oqibatida dunyo davlatlari O'zbekistonga yomon nazar bilan qarashiga olib kelmoqda ushbu holatlarning oldini olish uchun, unib o'sayotgan yosh avlodni yoshligidan tarbiyalab borish ya'ni umumtalim maktablarning 10-11 sinflarida yoki kasb-hunar ko'llejlarning o'quv jarayoniga "jinoyat va jozo" nomli fan predmetini kiritishni taklif etaman. Bu fan predmetini yuridik ma'lumotga ega bo'lgan hodimlari tomonidan o'qitilishi, bu fan predmetida barcha jinoyatlar haqida tushunchalar berilishi, shu jumladan, odam savdosi, diniy ekstremizm, giyohvandlik kabi jinoyatlarning salbiy oqibatlari va bu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonunchiligidagi belgilab qo'yilgan javobgarlik hamda jazo tizimi haqida ma'lumotlar berilsa menimcha bu turdag'i jinoyatlarni oldini olishga hamda sonini ma'lum miqdorda kamaytirishga erishgan bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda bu turdag'i jinoyatg' jabrlanuvchilarining sonini ham ma'lum miqdorda qisqarishiga oz bo'lsada hissa qo'shadi deb o'layman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi 2017 yil 3 yanvardagi qonuni // URL: <http://www.lex.uz>.
2. Odam savdosiga qarshi kurashishning huquqiy choralar: O'quv-amaliy qo'llanma / O'.X. Muhamedov, I. Ismailov, M.M. Qalandarov, D.Yu. Payziyev, Ya.A. Abdulhakov, I.Yu. Fazilov. — T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. — 84 b.

ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ МОШЕННИЧЕСТВА ОПЕРАТИВНЫМИ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯМИ ОВД.

Выполнил: курсант 332 группы
Холмакаммадов Умрек Хайдарали ўғли

Аннотация. Мошенничество является актуальной проблемой, наносящееся ущерб экономическим правам и интересам граждан, также это один из факторов ухудшающий динамику рыночной экономики нашей страны на мировой арене. Оперативные подразделения органов внутренних дел играют ключевую роль в предупреждении и борьбе с этим явлением, применяя научно обоснованные методы для предотвращения, и выявления данного вида правонарушения.

Ключевые слова: Экономические права, собственность в ее различных формах, мошеннические схемы, оценочная экспертиза, рыночная экономика, обман, пароли.

Annotation. Fraud is a pressing problem that harms the economic rights and interests of citizens, and it is also one of the factors that worsens the dynamics of the market economy of our country on the world stage. The operational units of the internal affairs bodies play a key role in preventing and combating this phenomenon, using scientifically based methods to prevent and detect this type of offense.

Key words: Economic rights, property in its various forms, fraudulent schemes, appraisal examination, market economy, deception, password.

На протяжении десятилетий наша Республика пытается построить развитую рыночную экономику, участвовать на мировой арене в качестве демократического и надежного экономического субъекта. К сожалению, на этом нелегком пути нашему государству препятствует целый ряд разнообразных преград. Среди них можно выделить экономические, социальные и множество иных проблем. Также актуальное место в этом списке занимает проблема преступности. В связи с этим, глава нашей Республики подчеркнул, что одним из основных направлений государственной политики играющий роль в развитии экономики нашей страны является борьба с преступностью. Согласно проведенным исследованиям участился тот факт, что одна из наиболее распространенных наносящих значительный ущерб собственности граждан, является мошенничество. Оно отличается от других видов правонарушений тем, что совершается разнообразными способами и методами, субъектами которых выступают порой грамотные и образованные лица.

Так, до раскрытия сущности методов защиты и предупреждения мошенничества надо определить, что же оно собой представляет. Согласно Постановлению Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан от 23.06.2023 под № 17, “О судебной практике по делам о мошенничестве”, закреплено такое определение: мошенничество выражается в противоправном и безвозвездном завладении чужим имуществом или правом на чужое имущество путем обмана или злоупотребления доверием, под воздействием которого собственник (его представитель), иной владелец имущества или уполномоченный орган передает имущество или право на него другому лицу, либо предоставляет возможность для изъятия имущества или приобретения права на него другим лицом. Также в Уголовном кодексе Республики Узбекистан от 22 сентября 1994 года дается схожее определение – мошенничество это завладение чужим имуществом или правом на чужое имущество путем обмана или злоупотребления доверием.

В связи с возрастанием количества посягательств на собственность граждан, в нашей стране, был изучен ряд архивных дел а также публикаций в СМИ, где отражена и сравнена статистика связанная с мошенничеством. Согласно данным, полученным от правоохранительных органов МВД, только по состоянию 2019 года, по республике было зарегистрировано около 1950 случаев разного рода мошенничества, за этот период 2020 года, число связанных преступлений со злоупотреблением доверия составляло уже 3800 случаев. Также в 2019 году, если число задержанных составляло 1748 субъектов, и раскрытие преступлений мошенничества составляло 98 процента, то в 2020 году эта цифра уменьшилась на 2 % составив 96 %, данный показатель в свою очередь указывает, на тот факт, что год за годом мошеннические схемы также усовершенствуются несмотря на усилие и организационные работы проводимые правоохранительными органами, которая требует от граждан внимания и бдительности.

И так, согласно психологическому анализу проведенного среди ранее судимых за данный вид преступления выяснилось, что те прибегая к обману или злоупотреблению доверием с целью безвозвездного завладения в свою пользу чужой собственности, вводят в заблуждение сознание и волю владельца имущества воспользовавшись криминальным и психологическим опытом, таким образом, что жертва, будучи введенным в заблуждение, якобы «сознательно» отчуждает в пользу мошенника личное или доверенное ему имущество либо передает чужое имущество, которым жертва владеет в качестве субъекта ограниченного материального права, предполагая, что для этого имеются законные основания. В этом и заключается специфика мошенничества. По сравнению типа субъектов посягающих на собственность граждан, мошенники

акцентируются на то, что под влиянием обмана или злоупотребления доверием жертва самовольно передаст ему свое имущество, когда как воры надеются на то, что их действия останутся незамеченными, а грабители наоборот полагаются на внезапность и дерзость своих действий либо на насилие.

Что же на счет предупреждения преступлений. Эта сложная деятельность в своем понимании. Многие знаменитые ученые, криминологи и криминалисты как: Р.С.Белкин, Ч.Ломброзо, Б.В.Волжекин десятилетиями изучали этот процесс, но несмотря на достаточно длительный период его изучения, не все пробелы этого процесса были решены.

В Криминологии выделяют три формы осуществления предупредительной деятельности:

а) “устраниние”-(ограничение возможностей) криминогенных процессов, способствующих совершению преступления – “профилактика”;

б) выявление лиц и общностей (групп), имеющих преступные намерения, и лишить их возможности совершить преступление - предотвращение преступлений.

Для заключения изложим несколько рекомендаций для защиты себя и своих знакомых от мошенничества:

1. **Повышайте правовое воспитание** - повышайте свою правовую грамотность, изучайте сведения о распространенных видах мошенничества и способах защиты от таких схем;

2. **Не передавайте личную информацию** – не сообщайте свои пароли от аккаунтов и банковских карт, злоумышленники могут оформить кредит на ваше имя, помните официальные лица не будут запрашивать от вас личные пароли.

3. **Используйте надежные и сложные пароли** – пользуйтесь надежными паролями и не используйте одни и те же пароли для разных платформ.

4. **Сообщайте о подозрительных случаях** – сообщайте в правоохранительные органы если вам звонят с неизвестных номеров и отправляют вам подозрительные сообщения.

5. **Берите расписку даже от знакомых** – когда вступаете в денежные отношения, даете в долг или же занимаете у определенного лица деньги, то оформляйте расписку с указанием конкретной суммы.

6. **Не доверяйте подозрительным розыгрышам на сайтах** – к примеру на определенном сайте которым вы пользуетесь всплывает такое уведомление с поздравлением, о том, что вы выиграли определенную сумму денег и можете забрать их перейдя по ссылке ниже". Не доверяйте таким ложным

сведениям, так как их написание всегда разное. Важно помнить тот факт что, такие розыгрыши являются обманом.

Правоохранительные органы защищают права и интересы граждан любыми законными способами, будучи верными своей присяге, однако эффективность этой нелегкой деятельности зависит от активности и бдительности граждан, ведь не зря говорят, что бдительность-это требование времени.

Использованная литература

1. Постановление Пленума Верховного Суда Республики Узбекистан от 23.06.2023 №17, “О судебной практике по делам о мошенничестве”, 3 п
2. Волженкин Б. В. Преступления в сфере экономической деятельности. 2002. 305 с.
3. Панов Н. И. Способ совершения преступления и уголовная ответственность. Харьков, 1982. 553 с.
4. Вишнякова Н. В. Объект и предмет преступлений против собственности. Дис. канд. юрид. наук 2003 144с

WOMEN-WRITERS IN ENGLISH LITERATURE

Mirzakhanova Sabina Khamidulla qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: xamitov.e@cspl.uz

Ilmiy rahbar: Khamitov Eldorbek Erkin o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

Abstract

The complex tapestry of women's historical contributions to English literature is explored in this article. It covers the wide range of themes, techniques, and influences of their writings by closely examining well-known authors like Margaret Atwood, Jane Austen, Charlotte Brontë, Emily Dickinson, Emily Brontë, Mary Shelley, George Eliot, and Agatha Christie. This article tries to shed light on the often-overlooked contribution of women in influencing the literary landscape by examining the societal conditions in which these women wrote and the distinctive views they brought to their narrative. Each writer's voice resonates with a unique power, ranging from Austen's sharp social critiques to Woolf's experimental narrative tactics, and from Brontë's examination of passion and identity to Shelley's groundbreaking journey into science fiction.

Keywords: Women-writers, Agatha Christie, Jane Austen, Feminist Awakening, Mary Shelly, Emily Dickinson.

Introduction.

English literature, with its illustrious history spanning centuries, has been primarily defined and celebrated through the lens of male authors. However, this narrative overlooks a crucial aspect of literary evolution: the profound and enduring contributions of women writers. From the subtle wit of Jane Austen to the radical experimentation of Virginia Woolf, women have played a pivotal role in shaping the literary landscape, challenging societal norms, and illuminating the human experience through their works. Despite facing systemic barriers and societal constraints, women writers have persisted, carving out spaces for their voices to be heard and their stories to be told. In this article, we embark on a journey to uncover the diverse voices and perspectives of women writers in English literature, exploring the themes, styles, and impacts of their works. Through a comprehensive examination of key figures and their seminal contributions, we aim to unveil the richness and complexity of women's literary endeavors, ultimately highlighting their indispensable role in the ongoing

narrative of English literature. The study of women's English-language writing has been characterized in a number of ways. It has been described as the field of writing by women and the literary category that includes writing by women about the discriminatory experiences they have had in society because of their gender. Their experiences have differed according to their social class, race, sexual orientation, and the area and sociopolitical climate in which they were living.

Agatha Christie (1890 - 1976).

Dame Agatha Christie is a detective mystery writer whose novels have sold over two billion copies worldwide, making her the best-selling fiction author of all time according to Guinness World Records. In addition to being the author of the longest-running drama in the West End, *The Mousetrap*, which has been performed since 1952, she is well known for creating the fictitious detectives Hercule Poirot and Miss Marple. Even on our list of classic authors to read, Christie's books are still well-liked by aficionados of detective fiction, and many of them have been adapted for television and film.

Among Agatha Christie's well-known works is 1934's *Murder on the Orient Express*. The Orient Express stops due to snowfall during Poirot's journey from the Middle East back to London. After a murder is reported, detective Poirot is tasked with cracking the case. In the 1936 film *The A.B.C. Murders*, starring Arthur Hastings, Chief Inspector Japp, and crime detective Poirot, the characters must deal with a string of murders committed by an enigmatic killer going by the moniker "A.B.C." The longest-running West End production, *The Mousetrap* (1952), is a murder mystery play that was written as a birthday gift for Queen Mary, King George V's spouse. The audience is urged not to disclose the narrative twist when they exit the theater, so people who haven't seen the stage play are still in the dark about it.

Jane Austen (1775 - 1817)

Jane Austen was a pioneering female writer who produced works that scrutinized and questioned the British landed nobility. Austen's plots highlighted women's dependence on marriage or women seeking financial security.

Since many of Austen's writings were thus published under pseudonyms, her lifelong notoriety was little. Her six full-length novels were rarely out of print, and her stature as a writer increased significantly after her passing. Her books have also been adapted into a variety of films, each of which has been accompanied by a number of critical studies and anthologies.

Among Jane Austen's well-known works are:

Sense and Sensibility (1811): Originally published under pseudonym by "A Lady," this novel chronicles the coming-of-age experiences of Elinor and Marianne Dashwood as they must leave their family estate and move in with their widowed mother.

Pride and Prejudice (1813): Elizabeth Bennet, the protagonist of the book, discovers the consequences of making snap decisions and the distinction between genuine virtue and appearances of goodness.

Emma (1815) is a comedy of manners that focuses on marriage, age, and social standing while portraying the worries of refined ladies in Georgian-Regency England.

Jane Austen's Feminist Awakening.

Jane Austen is a significant author in the annals of English literature. She possessed a unique political perspective and a sensitive understanding of reality, and she took a keen interest in the issues that face women today and reflected them in her writing. She tried to challenge traditional wisdom by opposing patriarchy, pursuing social equality with males, and holding unique opinions about society and love. Jane Austen was the first person to awaken women's consciousness and was a superb representative of feminism at the time. She looked at the nature of people from the viewpoint of "man" herself. Her art concentrates on the notion that, as "human beings," women and men are completely equal. In her books, Jane Austen did not alter the stereotype of women as "vases"; rather, she presented them as intelligent, attractive, and mature, just like men. These pictures represent the mature, kind, and perceptive woman—a singular person who has grown from imperfect to ideal. One such woman is Elizabeth from Pride & Prejudice. Because of her wit, intelligence, and sense of humor, she is strong and independent despite her temperament and lack of beauty. The notion that women are inherently less clever than men in society is successfully broken by this representation.

Mary Shelly(1797 - 1851).

Mary Shelley, the well-known author of Gothic fiction, comes in second on our list of notable female writers in history. In addition to being a well-known science fiction author, she was also an editor, specializing in the writings of her husband, the Romantic poet and philosopher Robert Bysshe Shelley.

Born to feminist activist Mary Wollstonecraft and political philosopher William Godwin, Shelley was reared exclusively by her father following the untimely death of her mother. Shelley married young and committed her life to producing fiction and promoting her husband's works, despite receiving a rich but informal education from her father who encouraged anarchist living.

Famous works by Mary Shelley include:

Frankenstein, also known as The Modern Prometheus (1818) - Written by Mary Shelley at the age of eighteen, the narrative centers on Victor Frankenstein, a young scientist who, through an unconventional experiment, unintentionally produces a sentient creature.

Valperga (1823) is a historical fiction that recounts the exploits of Castruccio Castracani, a real-life historical person who rose to become the Lord of Lucca and subjugated Florence, Italy, during the Guelph and Ghibelline wars.

Two volumes of travelogue Rambles in Germany and Italy (1844) detail two travels Shelley took throughout Europe with her son Percy and a number of his college pals.

Conclusion.

In conclusion, our exploration of women writers in English literature has revealed a vibrant tapestry of creativity, resilience, and innovation. From the Regency era to the modern day, women have defied societal expectations and patriarchal constraints to produce works of enduring relevance and profound insight. Through their novels, poetry, essays, and plays, they have offered unique perspectives on love, identity, power, and social justice, enriching the literary canon in the process. However, our journey also underscores the persistent challenges and barriers faced by women writers, from limited access to education and publishing opportunities to enduring stereotypes and biases. As we celebrate the achievements of Jane Austen, Virginia Woolf, Emily Brontë, Mary Shelley, Toni Morrison, George Eliot, Margaret Atwood, and countless others, we must also acknowledge the ongoing need for greater recognition, support, and inclusivity within the literary community. By amplifying the voices of women writers, embracing diverse narratives, and challenging gendered expectations, we can ensure that English literature continues to evolve, reflect, and inspire for generations to come.

References.

- Agatha Christie. https://en.wikipedia.org/wiki/Agatha_Christie
- Eldorbek, K. (2023). ERRORS IN TRANSLATION OCCURRING DUE TO ASYMMETRIES IN THE TARGET AND SOURCE LANGUAGES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 289-292.
- Emily Dickinson. https://en.wikipedia.org/wiki/Emily_Dickinson
- The Development of Feminist Thought in Modern English Literature
- WOMEN'S WRITING (ENG3 E03) III SEMESTER CORE COURSE M.A. ENGLISH (2019 Admission onwards)
- WOMEN'S WRITING IN ENGLISH.B.A. (English) VI - Semester 112 63

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA JAZO MUDDATINI O'TAYOTGAN YOSH MAHKUMLAR BILAN O'TKAZILADIGAN TARBIYAVIY-PROFILAKTIK ISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Hamrayeva Farangiz

IIV Akademiyasi 3- kurs 327- guruhi kursanti

Annotatsiya. Maqolada jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy-psixologik ishlar, ushbu tadbirlarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad, muammolar yechimi, o'tkaziladigan to'garaklar, musobaqalar, mashg'ulotlar, uchrashuvlar va olib boriladigan hamkorlik aloqalari borasidagi fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar. Jinoyatchilik muammosi, yosh mahkumlar, aybdorlik hissi, o'rta ta'lim olish, kasb-hunarga o'rgatish, ish bilan ta'minlash, hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali kutilgan natijalar.

Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda kundan-kunga avj olib, o'zining ildizlarini keng yoyayotgan jinoyatchilik muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishdagi eng samarali usullardan biri jinoyatchilik profilaktikasi hisoblanadi. Jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash bilan bir qatorda, tayinlangan jazoni ijro etishning oqilona yo'lga qo'yilishi jinoyatchilikni profilaktika qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning toifalari ko'p, shunga monand jazoning ham bir necha turlari mavjud. Jinoyat uchun adolatli jazo tayinlash orqali jabrlanuvchi, davlat hamda jamiyatning huquq va manfaatlari himoya qilinadi, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplash bilan qonun ustuvorligi ta'minlanadi. Biroq jazoning turi qanday bo'lmasin, maqsad bitta- mahkumni axloqan tuzalishiga imkoniyat berib, jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylantirishdir.¹

Jinoyatchilik ko'chasi shunday ko'chaki, u hech qachon yosh, makon va zamon tanlamaydi. Bilib-bilmay, o'zi anglamagan holda jinoyat sodir etib, boshi berk ko'chaga kirib qolgan va o'zining qilgan qilmishi sababli panjara ortiga tushib qolib, aybiga iqrorligini tinmasadan ta'kidlayotgan yosh mahkumlar ham yo'q emas.

Yosh mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni o'tkazishdan asosiy ko'zlangan maqsad: hozirgi kunda yosh mahkumlar o'rtasida tartibbuzarlik va qayta jinoyat sodir etilishi ortganligi, ushbu salbiy holatlarni ya'ni koloniyada jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlar o'rtasida tartibbuzarliklar va qayta jinoyat sodir etilishini

¹<https://sudyalaroliykengashi.uz/uz/news/578>

oldini olish hamda yoshlar qalbida milliy g'ururni shakllantirish, asrlar davomida saqlanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizga bo'lgan cheksiz hurmatni mustahkamlash, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni keng targ'ib qilish, mustaqillik xalqimiz uchun oliy ne'mat ekanligi, uni qadrlash va ko'z qorachig'idek asrash har bir fuqaroning eng muqaddas burchi ekanligini mahkumlar ongiga singdirish, tinch, osuda hayotimizni qadrlash, mamlakatimizda barcha jabhalarda olib borilayotgan tub islohotlar natijasida yurtimizning rivojlanib borayotganligini tushuntirib, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish hamda mahkumlarni tuzalish yo'liga o'tishlari uchun tarbiyaning yanada muhimligini va samarasini oshirishdan iboratdir.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan aynan yosh mahkumlar bilan ishlash va ular bilan o'tkaziladigan chora-tadbirlar ketma-ketligi belgilab o'tilgan bo'lib, jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yosh mahkumlar bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar jumlasiga: jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlarni mavjud muammolarini o'rganib, hal etib borish, yosh mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni tashkil etish, yosh mahkumlar o'rtasida aqidaparastlik, ekstrimizm, terrorizm hurujlariga qarshi kurashish mavzularida uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida yosh mahkumlarning qalbida milliy g'ururni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar kiradi.

Jazo muddatini o'tayotgan yosh mahkumlarni mavjud muammolarini hal etishda muassasa rahbariyati tomonidan sayyor qabullar tashkil etilishi hamda yosh mahkumlarni huquq va majburiyatlar, mavjud muammolari bo'yicha qiziqtirgan savollari haqida ma'lumot olishlari uchun huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari ishtirokida sayyor qabullar tashkil etib borish muhim hisoblanadi. Bu ishlarni tashkil etishda esa hududiy prokuratura, sud, adliya va Ichki ishlar bo'limlari bilan hamkorlikda ishslash tizimi joriy etilgan.

Yosh mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktik tadbirlarni tashkil etishda ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, dunyoqarashida jinoyat va huquqbazarlikka qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha hamkor tashkilotlar bilan davra suhbatlarini o'tkazilishi kelgusida ularni qaytadan jinoyat ko'chasiga kirishini oldini olishda kerakli vazifalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda Hududiy yoshlar ishlari bo'limlari, Madaniyat markazlari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Ichki ishlar bo'limi profilaktika va probatsiya vakillari hamda tadbirkor tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Yosh mahkumlarni jazoni o'tash davomida o'rta ta'lim olishlari va kasb-hunarga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida o'rta ma'lumotga ega bo'limgan yoshlarni

umumta'limga muktabi filiallari faoliyat yuritayotgan koloniyalarga yo'naltirish orqali o'rta ta'limga olishga bo'lgan huquqlarni ta'minlash, yosh mahkumlarni qaysi kasbhunar turlariga qiziqishini aniqlash bo'yicha so'rovnomalari o'tkazish va ularning layoqatidan kelib chiqib, kasb-hunarga ega bo'lishlarini ta'minlash, Usta-shogird muktablari va kasb-hunarga o'qitish markazlari bilan hamkorlikda kasb-hunarga o'qitish qamrovini oshirish orqali kasbi yo'q bo'lgan yosh mahkumlarni to'liq kasb-hunarga o'rgatish, kasb-hunarga o'rgatilgan yosh mahkumlarni egallagan mutaxassisliklari bo'yicha sertifikatlar bilan taqdirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Yosh mahkumlarni ozodlikka chiqqandan so'ng ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha hududiy kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib, mahkumlarni ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashish, ozod etilayotgan moddiy yordamga muhtoj bo'lgan yosh mahkumlarni ijtimoiy-maishiy muammolarini ijtimoiy moslashtirish markazlari bilan birgalikda hal etish bilan ularga yordam ko'rsatish tizimlari joriy etilgan.

Xulosa o'rnila shuni aytish joizki, yosh mahkumlar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan va kelgusida o'tkazilishi belgilangan bunday tarbiyaviy-profilaktik va psixologik tadbirlar natijasida yosh mahkumlarning axloqan tuzalishiga bo'lgan harakatlarning samarali natijalar bilan yakunlanishi, shuningdek yosh mahkumlar orasida o'zini yaxshi tomonlama ko'rsatib, yaxshi natijalarga erishish uchun intilishini kuchayishiga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida, yosh mahkumlarning kelgusida hayotga bo'lgan qiziqishini oshishiga va qayta jinoyat sodir etmaslik uchun harakatga undaydi.

О'zbek tili imlosini o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlarni integratsiyalash

Po'latova Nasiba Sobirovna

Ishtihon tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Kalit so'zlar: O'zbek tili imlosi, interfaol metodlar, integratsiyalash, kommunikativ kompetensiya, metodik qo'llanmalar.

Annotatsiya: O'zbek tili imlosini o'qitishda an'anaviy va innovatsion metodlarni integratsiyalash haqida to'talib o'tildi.

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori ona tili ta'limiga ham alohida o'rin ajratilgan.

Bugungi kunda o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi juda ham yuqori. Shunday ekan, o'qituvchilar ham ularni o'qitishda aynan zamonaviy texnologiyalarga murojaat qilishi zarur. Ammo shuni unutmaslik kerakki, faqatgina ijtimoiy tarmoqlarga tayanib dars o'taverish ham o'quvchilarni dangasalikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar an'anaviy hamda innovatsion metodlardan foydalangan holda dars o'tishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. An'anaviy metodlarga innovatsion yangiliklar kiritib uni o'quvchilarga tatbiq etish, ularni mavzuni yanada mukammal tushunishlariga yordam berish har bir o'qituvchining vazifasi. Shunday ekan, ushbu o'qituvchi o'z ko'zlagan maqsadiga erishish uchun avvalo an'anaviy metod va innovatsion metodlar haqida mukammal bilishi va uni yaxlit o'rganib chiqishi lozim. Shundan so'ng esa bu ikkala metodni integratsiyalagan holda o'tishi lozim. Integratsiya nima? Integratsiya bu – ikki xil ma'lumot yoki fan doirasida ikki xil fan yoki metodni bo'g'lagan holda dars o'tishga aytildi. Integratsiyadan shu vaqtga qadar aynan O'zbekistonda ko'p foydalanilmagan. Ammo bir necha yildan buyon O'zbekistonimiz ham rivojlangan davlatlar qatorida ta'lim tizimimizga qattiq e'tibor berib, fanlarni o'zaro bog'lab integratsiyadan unumli foydalanib kelmoqda. So'zimiz isboti tariqasida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangi chiqqan "Ona tili va o'qish savodligi" darsligini misol keltirishimiz mumkin. Ushbu darslikda ikkita fanning integratsiyalashgan shakli berilgan. Bu esa o'quvchining fanni yaxshiroq o'zlashtirishi uchun juda qulay hisoblanadi. An'anaviy metodlarga misol qilib: breynrayting, aqliy hujum, baliq ovi, klaster, blits-so'rov,

bumerang, keys-stadi, germanekativ suhbat kabilar. Ushbu metodlarni avvalo yaxshilab o‘rganib keyin bularni innovatsion metodlarga uyg‘unlashtirish darsimizni yanada yuqori sifatli o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi. Innovatsion metodlarga esa quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to’liq foydalilaniladi.

Ushbu metodlardan foylanishdan oldin uni o‘quvchilarining yoshiga, o‘qish saviyasiga va albatta maktab tartib qoidalariga to‘g‘ri keladimi yo‘qmi o‘rganib chiqish lozim. Shundan so‘ng bu metodlardan zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishlashimiz mumkin. Bu albatta o‘qituvchi uchun ham o‘quvchi uchun ham ijobjiy faoliyat bo‘lib xizmat qiladi.

Ona tili o‘quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og‘zaki va yozma ravishda to’liq bayon qilishga o‘rgatadi. O‘quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi.

Ma’lumki, har bir milliy til o‘zida moddiy olamni aynan, adyekvat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg‘u-alamlari-yu shodliklarini ham o‘rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o‘z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Tilning o‘ziga xos nafosatini o‘quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta’limida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda *breynrayting*, *breystorming*, *aqliy hujum*, *bumerang*, *blits-so‘rov*, *klaster*, *keys-stadi*, *germenekativ suhbat* kabi turli tuman metodlar paydo bo‘ldi. Shunday usullardan biri kakografiyadir.

Kakografiya so‘zi lotincha *kakos* – *yomon*, *xunuk*, *yoqimsiz* va *graphos* – *yozmoq* so‘laridan olingan bo‘lib, muayyan maqsadni ko‘zlab xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan matnni tuzattirish orqali o‘quvchilarga imloni o‘rgatish usuli sanaladi. Bu usulning pedagogik va didaktik jihatlari hali ochib berilmagan. Rus tilida *какофонический*, *какофония* degan so‘zlar mavjud bo‘lib, ularga lug‘atlarda *qulogqa yoqmaydigan*, *yoqimsiz*, *nosoz*, *g‘aliz*; *uyg‘unlashmagan*, *yoqimsiz tovushlar yig‘indisi* degan izohlar beriladiki, bu so‘z semantikasiga salbiy baho yuklaydi. Shunga ko‘ra, kakografiya usulida yozuv bilan bog‘liq g‘alizlik, yoqimsizlik yashirinib yotganga o‘xshaydi, ammo orfografik nuqtayi nazardan qaralganda u bilan bog‘liq didaktik hamda pedagogik jihatlarni ochib berish masalaga oydinlik kiritishi mumkin.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingen bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo‘yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O‘quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo‘qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, mutelik, tobelik, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

Ayniqsa, fonetika, grafika, orfografiya, leksika va morfologiya bo‘limlari bilan bog‘liq amaliy darslarni o‘tishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Masalan, o‘quvchilarga unli va undosh tovushlar bo‘yicha yetarlicha ma’lumotlar berilgach, “Mustahkamlash darslari” yoki “Takrorlash darslari”da turli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda asosiy e’tibor so‘zlarning aytilishi va yozilishi o‘rtasidagi farqqa qaratiladi.

Tajribadan ma’lumki, o‘quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirmaydilar. So‘larni qanday aytilsa, shunday yozishga odathlanib qoladilar. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagи savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so‘zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo‘ladi.

Masalan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqida *baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas’ul, daryo* kabi so‘zлarni *boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma’sul, dayra* tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo‘yicha ona tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida “O‘zbek tilining imlo qoidalari”dagi “Ayrim unlilar va undoshlar imlosi” yuzasidan tegishli nazariy ma’lumotlar mavzular o‘tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi:

So‘zлarni o‘qing, xato yozilgan o‘rinlarni topib, o‘zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chirib yozing.

Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kompyuter, maylis va hokazo.

To‘g‘ri yozilishi: *buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis.*

Kakografik yo‘nalishdagi bunday topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- O‘quvchilar ona tilidan olingen bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;
- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;

- Xulosalar chiqaradi, orfografik bilimlarni mustahkamlaydi.

Ayniqsa, og‘zaki nutqda *h – x, b – p, d – t, z – s* kabi birining o‘rniga ikkinchisi ko‘p qo‘llaniladigan undosh tovushlarning imlosini o‘rgatishda kakografiya usuli yaxshi samara beradi. Bunda xato yozilgan so‘zlarni o‘quvchilarga slaydlar orqali ko‘rsatish, sinf taxtasiga ataylab xato yozish, so‘zlari xato yozilgan tarqatma materiallarni qo‘llash kabi vositalardan foydalanish unumli. Masalan:

Xato yozilgan so‘zlarni aniqlab, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chirib yozing.

Orombahsh, zahira, hoxish, xol-ahvol, hiyonat, ihlos, xar hil, xamma, Xindiston, hatti-xarakat, hayol

To‘g‘ri yozilishi: *orombaxsh, zaxira, xohish, hol-ahvol, xiyonat, ixlos, har xil, hamma, Hindiston, xatti-harakat, xayol.*

Kakografiya usuli leksikologiya bilan bog‘liq mavzularni o‘tishda ham qo‘l keladi. Matn ichida bir tovush bilan farqlanuvchi *dars-darz, bob-bop, mart-mard, qasr-kasr, qaram-karam, halok-halak, kaft-kift, asl-asil, asr-asir, oxir-axir-oxur, chog‘-choq-choh* singari paronim so‘zlarni xato yozib, o‘quvchilardan ularni to‘g‘rilab yozishni so‘rash ulardagi bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

Xato yozilgan paronim so‘zlarni toping, ularni imlo qoidalariga mos ravishda to‘g‘rilab, daftaringizga ko‘chiring.

Birovga choq qazisang, o‘zing tushasan. Mart bir o‘ladi, nomart – ming. Qarz ikki qo‘ldan chiqadi. Onangni kifitingda ko‘tarsang, singlingni kaftingda ko‘tar.

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,

Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana,

Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana,

Moziyni yot etay desang – xalq bo‘l, elim!

Gaplardagi *choh, mard, momard, qars, kaft, kift, yod* so‘zlari noto‘g‘ri yozilgan. Buni faqat o‘ylash, fikrlash, leksikologiya bo‘yicha o‘tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, biz – yoshlар vatanimiz O‘zbekistonning qanotlarimiz. Bugun bizning oldimizda ona tilini o‘rganish borasida yagona to‘g‘ri yo‘l turibdi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalgan o‘zbek tilini mukammal o‘rganishimiz, og‘zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo‘lishi talab etilmoqda. Yuqoridaqilarni amalga oshirish uchun bizga kakografiya usuli kutilgan samarani berishi mumkin. Zero, davr o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni o‘zlashtirishni talab etmoqda.

Shuning uchun ham har bir o'qituvchi o'quvchilarni qiziqtirish maqsadida har xil usullardan foydalangani ma'qul deb hisoblayman.

Darsda foydalanish uchun ko'plab metodlarni misol keltirishimiz mumkin. Masalan: venn diogrammasi, g'oyaviy charxpalak, uchta noto'g'ri bitta to'g'ri, baliq skeleti kabi. Bular asosan an'anaviy metodlar hisoblanib ularni texnologik ya'ni hozirgi zamонавиy texnologiyalarga bog'lab o'tsak darsimiz yanada qiziqarliroq bo'ladi. Masalan G'OYAVIY CHARXPALAK metodini olaylik,

G`oyaviy charxpalak

Ta'rifi

1. Kichik guruhning (4-5 kishidan iborat) har bir ishtirokchisiga toza oq varaq beriladi va bir xil savol beriladi (zarur bo`lganda o`qituvchi guruhning har bir ishtirokchisi uchun turli savollarni tayyorlashi va taklif qilishi mumkin). Barcha ishtirokchilar og`zaki fikr almashmasdan, o`zlarining varaqlarida savollarga bo`lgan javoblarning o`z-o`zidan aqlga kelib qoladigan ifodalarini yozadilar.

2. Ifodalar yozilgan varaqlar vaqt tanqisligi sababli soat millarining harakatlanishi bo`yicha kichik guruhdagi qo`shnilarga uzatiladi. Bunday varaqni olgandan so`ng har bir ishtirokchi varaqda mavjud yozuvlarni takrorlamasdan, yangi yozuv kiritishi lozim. Har bir ishtirokchining varag`i yana o`ziga qaytib kelgandan so`ng ish yakunlanadi. Ushbu bosqichda yozuvlar tahlil qilinmaydi, baholanmaydi va tanlab olinmaydi (ushbu uslubiyatning «aqliy hujum» bilan ayrim o`xhashligi ana shunda namoyon bo`ladi).

3. Kichik guruhlarda ishtirokchilar tomonidan ifodalangan javoblar va takliflarning muhokamasi o`tkazilib, ularning eng muhimlari va dolzarblari yakuniy ro`yxatga kiritiladi.

4. Kichik guruhlar ishlanmalarining natijalari bilan almashish. Barcha kichik guruhlar navbatma-navbat yakuniy ro`yxatdan o`z ifodalarini taklif etadilar. Agar bu ifoda yuzasidan boshqa guruhlar e'tiroz bildirmasalar u oxirgi ro`yxatga kiritiladi.

Foydalanish doiralari

Tabiiy va aniq fanlarni o`qitishda, topshiriqlar ma'lum o`quv mavzusiga va ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga moslashtirilgandan keyin.

Afzalliklari

Taklif etilgan masalalarni izchil muhokama qilishni tashkil etish, so`ng jamoa bo`lib qarorni qabul qilish; bilimlarni dolzarblashtirish va mavjud tajribani aniqlash.

Qiyinchiliklari

Agar ishtirokchilardan biri ushbu mavzu bo`yicha yaxshi tayyorlanmagan bo`lsa, u butun jarayonni to`xtatib qolishi mumkin. Mazkur vaziyatda o'quvchiga muhokama etilayotgan masalalar bo`yicha darslikdan yoki boshqa adabiyotdan

foydalanishga ruxsat berish mumkin, lekin bu uning bahosiga albatta ta'sir ko'rsatishi to'g'risida ogohlantirib qo'yish kerak.

Bu metodni o'zbek tili imlosini o'rgatishda quyidagicha talqin qilish mumkin. Masalan, o'qituvchi boshlash uchun har bir varoqqa bittadan xato yozilgan so'zlarni yozib o'quvchilarga tarqatadi. Shundan so'ng o'quvchilar birin- ketin ushbu varoqdagi xato so'zni topib o'rniiga o'zlari biror so'zni imloviy jihatdan xato qilib yozib keyingi o'quvchiga berishadi. Keyingi o'quvchi esa sherigi bergen ma'lumotdan xatoni topib o'rniiga o'zi biror so'zni xato qilib yozib beradi. Va o'yin shu tariqa davom etadi. O'zi boshlagan varoq o'ziga qaytib kelgach o'yin nihoyasiga yetadi va o'qituvchi o'quvchilarning o'rinalariga qarab ularning xatolarni qay darajada to'g'ri topa olganliklarini aytib o'zlari bilan birgalikda muhokama qilishadi.

Xulosa

Kalit so'zlar: anatomik-fiziologik,qo'zg'alish,tormozlanish,aqliy tog'aysimon suyaklar.

Аннотация: В статье описаны анатомо-физиологические особенности детей младшего школьного возраста и их связь с процессом обучения. Также говорится о важных аспектах процессов, происходящих в подростковом возрасте.

Ключевые слова: анатомо-физиологические, возбуждение, торможение, подбородочные таранные кости.

Annotation: This article describes anatomical-physiological characteristics of children of junior school age and their connection with the process of learning. It also talks about the important aspects of the processes that take place in adolescence.

Key words: anatomical-physiological, excitation, braking, mental talus bones.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida eng boshida "7 yosh inqirozi" vujudga keladi.Bu davrdan o'tish birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi.Bola og'ir sumka ko'tarib maktabga borgisi kelmaydi va injiqlik qiladi.Maktabga bormasligining yana bitta sababi,ularning ko'p yo'l yurishidadir.Ularning muskullari hali to'liq rivojlanib bo'limganligi sababli bu ham qiyinchiliklarga olib keladi.Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlarini,jismoniy rivojlanish darajasini,sog'ligi va qolaversa nuqsonlarini inobatga olish muvafaqqiyatlari o'qish garovidir.Yurak muskullari kichik maktab yoshidagi bolalarda tez o'sadi,qon tomirlarining diametri sal kaltaroq bo'ladi,miyaning og'irligi boshlang'ich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi.Miya po'stining analistik-sintetik faoliyati takomillashadi.Agarda bu yoshda turli travmalar olinsa,kelajakda o'zini namoyon qilmasdan qolmaydi.Bu aqliy, intellektual jihatdan rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi.Uning og'irligi oyiga 150dan 200gacha,bo'yisi esa 0,5 smgacha

ko'payadi.6 yoshli bolalar turli tezliklarda,tez va yengil yugura oladilar.Miyada qo'zg'alish va tormozlanish o'rtasidagi munosabat(muvozanat)o'zgaradi,lekin qo'zg'alish nisbatan ustunlikka ega bo'ladi.Agar tormozlanish ustunlik qilsa,o'quvchida bo'sh o'zlashtirish,umidsizlik,o'ziga ishonmaslik,kam harakatlilik holatlari yuzaga keladi.Bu yosh davrida bolalarni chiroyli yozmaslikda ayblamaslik zarur.Chunki bu yoshda hali muskullar to'liq shakllanmagan bo'ladi.Ularni dars mobaynida jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullantirish zarur.Bir joyda ko'p o'tirish hali to'liq shakllanmagan tog'aysimon suyaklarning noto'g'ri o'sishi va umurtqa pog'onasining noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.Xulosa qilib aytganda ular,ya'ni,kichik maktab yoshidagi bolalar qancha sog'liq jihatidan sog'lom bo'lsa,shunchalik bilim olishdagi muvafaqqiyati kuchli va o'ziga ishonuvchan,intiluvchan shaxs bo'lib kamol topadi. Kichik maktab yoshi tayanch-harakat tizimining nisbatan bir xil, lekin uning individual o'lchovli xususiyatlarining o'sish intensivligi har xil rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, bu davrda tananing uzunligi uning massasidan ko'proq darajada oshadi. Bu yoshdagagi bolalarning bo'g'imlari juda harakatchanligi, tayanch-harakat apparatining elastikligi bilan ajralib turadi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab yoshi barcha asosiy bo'g'lnlarda harakatchanlikning yo'naltirilgan o'sishi uchun eng qulay davr hisoblanadi. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining mushaklari nozik tolalarga ega, faqat oz miqdorda protein va yog'larni o'zida saqlaydi. Shu bilan birga, oyoq-qo'llarning katta mushaklari kichiklarga qaraganda ancha rivojlangan bo'ladi. Bu yoshda asab tizimining morfologik rivojlanishi deyarli to'liq tugaydi, nerv hujayralarining o'sishi va tuzilmaviy o'sishi yakunlanadi. Shu bilan birga, asab tizimining ishlashi qo'zg'alish jarayonlarining ustunligi bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich maktab yoshining oxiriga kelib, o'pkaning hajmi kattalar o'pkasining yarmini tashkil qiladi. Bir daqiqada nafas olish hajmi 7 yoshli bolalarda 3500 ml / min dan 11 yoshli bolalarda 4400 ml / min gacha ko'tariladi. O'pkaning hayotiy sig'imi 7 yoshda 1200 ml dan 10 yoshda 2000 ml gacha oshadi. Jismoniy tarbiya jarayonida bola tanasining funktsional imkoniyatlari ko'rsatkichlari oshirishda jismoniy mashqlar tana harakatlarining tuzilishini, tanaga ta'sir qilish usullarini tanlashning yetakchi mezonlari sifatida xizmat qiladi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun yuqori jismoniy faollikka ehtiyoj tabiiy jarayondir. Harakat faoliyati deganda odamning kundalik hayot jarayonida bajaradigan harakat harakatlarining umumiyligi soni tushuniladi.Yozda 7-10 yoshli bolalar kuniga 12 dan 16 ming qadamgacha harakat qilishadi.Qizlarning tabiiy kundalik faolligi o'g'il bolalarnikiga qaraganda 16-30% past bo'lib, qizlar kamroq darajada jismoniy faollikni mustaqil ravishda bajaradilar.Yilning bahor va kuz davrlari bilan taqqoslaganda, qishda bolalarning harakat faolligi 30-45% gacha kamayadi. 6-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limdan tizimli ta'limga o'tishi bilan jismoniy faollik hajmi 50 foizga qisqaradi.Mashg'ulot davrida maktab o'quvchilarining harakat faolligi yuqori sinfga

o'tishda tobora pasayib boradi. Shuning uchun bolalarning yoshi va sog'lig'iga mos ravishda kundalik harakat faolligini yetarli miqdorda ta'minlash juda muhimdir. Olimlar har xil turdag'i jismoniy mashqlarni bajarishda bolalarga kuniga qancha jismoniy faollilik berish kerakligini aniqladilar. Maktabdag'i mashg'ulotlardan so'ng, bolalar kamida 1,5-2,0 soat ochiq havoda ochiq havoda va sport o'yin-kulgilarida o'tkazishlari kerak. Jismoniy rivojlanish darajasi bolaning sog'lig'ining ko'rsatkichlaridan biridir. Insonning jismoniy rivojlanishi deganda organizmning morfologik va funktsional xususiyatlarining kompleksi tushuniladi, bu esa pirovard natijada uning jismoniy kuchining zaxirasini belgilaydi. Bolalar va kattalardagi "jismoniy rivojlanish" tushunchasi bir xil emas, chunki. bolalarning jismoniy rivojlanishini o'rganishda nafaqat morfologik va funktsional belgilar tekshiriladi, balki organizmning biologik rivojlanish darajasi ham aniqlanadi. Bolaning tanasiga kelsak, jismoniy rivojlanish deganda uning o'sishi va yetukligi jarayonini tavsiflovchi tananing morfologik va funktsional xususiyatlarining yig'indisi tushuniladi. Bolalar va kattalarning jismoniy rivojlanishini tavsiflash uchun asosiy antropometrik ko'rsatkichlar (tana uzunligi, vazni va boshqalar) qo'llaniladi. Bolaning tanasi doimo o'sish va rivojlanish jarayonida bo'lib, ular ma'lum bir muntazam ketma-ketlikda doimiy ravishda sodir bo'ladi. Tug'ilgandan boshlab, bola kattayguniga qadar ma'lum yosh davrlarini bosib o'tadi. Hayotning turli davrlarida bola ma'lum anatomik va fiziologik xususiyatlar bilan ajralib turadi, ularning umumiyligi tananing qarshiligining reaktiv xususiyatlarida iz qoldiradi. 6-10 yoshli bolalarning tana tuzilishi kattalarnikidan tubdan farq qilgan holda, butun tana tizimlarida chuqur sifat o'zgarishlarining takomillashuvi davri hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich maktab yoshi bolalarda deyarli barcha jismoniy fazilatlarni va harakatni muvofiqlashtirish qobiliyatini shakkantirish uchun eng qulay davrdir. Bu yoshdag'i o'quvchilar bilan sifatli ish olib borish uchun o'qituvchi bolaning anatomiysi, fiziologiyasi va psixologiyasini chuqur bilishi kerak. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning o'sish va rivojlanish jarayonlarini o'rganish individual rivojlanish sur'ati bir xil emasligini ko'rsatadi. Aksariyat bolalarda yoshiga mos rivojlanish jarayonlari mavjud, ammo har qanday yosh guruhida o'z tengdoshlaridan rivojlanishda oldinda bo'lgan yoki orqada qoladigan bolalar uchraydi. So'nggi paytlarda orqada qolgan bolalar soni ortib bormoqda va bu holat ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazishda hisobga olinishi kerak. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishi ancha intensiv va nisbatan bir tekis bo'lib, a har yili o'rtach o'g'il va qiz bolalarda tana uzunligi 4-5 sm ga, vazni - 2-3 kg ga, ko'krak aylanasi - 1,5-2 sm ga oshadi. Orqa miyaning keyingi ossifikatsiyasi va o'sishi (umurtqali tanalar, umurtqali jarayonlar) mavjud. Orqa miya hali ham moslashuvchan va egiluvchan bo'ladi. Shu munosabat bilan, mashg'ulotlar paytida bola tanasining uzoq muddatli noto'g'ri pozitsiyasi, bir qo'lda og'irlikni ko'tarish, yoshiga mos bo'limgan mashqlarni bajarish orqa miya egriligidiga

va ko'krak qafasining deformatsiyasiga, erta osteoxondrozga olib kelishi mumkin, natijada umurtqalar o'rtasida joylashgan qon tomirlari siqiladi va umurtqalarning oziqlanishining yomonlashishiga hamda ularning rivojlanishining buzilishiga olib keladi.Orqa miya 8-9 yoshdan boshlab eng katta harakatchanlikka ega bo'ladi.Aynan shu davrda qomatning buzilishi va umurtqa deformatsiyalari kam uchraydi. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining darsdagi vazifalaridan biri qomatni to'g'ri shakllanishini ta'minlash bo'lishi kerak.Ko'krak suyaklari hali birga o'smaganligi va mustahkamlanmaganligi sababli, og'ir yukni bola ko'tarmasligi kerak. Boshlang'ich maktab yoshida mushak massasining o'sishi va mushaklarning kuchi oshishi kuzatiladi. Katta mushak guruhlari yanada intensiv rivojlanadi. Bolalar katta amplituda bilan harakat qilishlari mumkin bo'ladi.O'z tanasining massasini (ko'tarilish, toqqa chiqish) gorizontal va vertikal holatda ko'tarish bilan bog'liq kuch sifatini rivojlantirish uchun mashqlardan foydalaniladi. Bu yoshdagi bolalarning mushaklari ingichka tolalarga ega bo'lib, oqsillar va yog'lar kam va ko'p miqdorda suv mavjudligi uchun ular asta-sekin rivojlanib, diversifikatsiya qilinishi kerak. Katta hajmli va ayniqsa, intensiv yuklardan foydalanmaslik kerak, chunki ular yuqori energiya talab qiladi. Bu esa umumiy o'sishning kechikishiga olib kelishi mumkin. Mashqlar dozasi va ularni tanlashda ehtiyyot bo'lish talab etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.E.G'.G'oziyev "Ontogenet psixologiyasi" Toshkent- 2020.
- 2.Z.T.Nishanova,N.G.Kamilova,D.U.Abdullaeva,M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya".Toshkent- 2018.
- 3.Гжемская, Н. Х. Особенности физического развития мальчиков 8-10 лет при различной двигательной активности /Н.Х. Гжемская, В. В. Павлов, С. А. Снесарев //Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2016. – №. 11 (141).-С.14
- 4.Кузнецов, В.С. Физкультурно-оздоровительная работа в школе : метод, пособие / В.С.Кузнецов, Г.А. Колодницкий. — М. : ЦЭНАС, 2003 . - 184 с

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA PSIXIKA RIVOJLANISHINING UMUMIY TASNIFI VA BU YOSHDA INTELLEKTNING RIVOJLANISHI

Rajabova Zamira Ravshanbekovna

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi

212- guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik mакtab yoshidagi bolalarning turli jihatdan: o'sish, rivojlansh, bilim olish jihatdan rivojlanishi va intellektning bu yoshdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik mакtab yoshi, tafakkur o'sishi, xotira faolligi, psixik faollik, aqliy rivojlanish

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность детей младшего школьного возраста в различных аспектах: рост, развитие, обучение и важность интеллекта в этом возрасте.

Ключевые слова: ранний школьный возраст, развитие мышления, деятельность памяти, умственная деятельность, умственное развитие.

Abstract: This article highlights the importance of children of primary school age in various aspects: growth, development, learning and the importance of intelligence at this age.

Key words: early school age, thinking growth, memory activity, mental activity, mental development

Biz bu davrni, ya'ni kichik mакtab yoshini o'rganayotib uning turli jabhalariga to'xtalib o'tishni joiz topdik. Aynan bu yoshda intellektning rivojlanishini o'rganish eng dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etish mumkin.Odatda psixologiya fanida kichik mакtab yoshi davriga 6 yoshdan 10(11) yoshgacha bo'lган boshlang'ich sinf(I-IV) o'quvchilari kiritiladi. Lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va muutlaq degan fikr emas, albatta. Kichik mакtab yoshidagi bolalar, dastavval, ta'lim-tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishtiriladi: undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologik-jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.Binobarin ularning psixikasida ham o'zgarishlar sezilarli darajada bo'ladi. Bolaning mакtabga kirishi uning hayotida burulish chog'idir.Bola avvalo mакtabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi

oyiga 150dan 200gacha, bo'yи esa 0,5sm gacha ko'payadi.[3] Katta yoshdagilar shu yoshdagи bolalar bilan ishlashda ularning hali rivojlanayotganini hisobga olishlari zarur. Ularni majburan yozishga majbur qilmaslik kerak. Bu narsa ularni xunuk yozishga olib keladi.Kichik mакtab yoshidagi bolalarda aqliy-jihatdan tafakkurning o'sishi ham jadallahadi.Bolaning muayyan taraqqiyot darajasiga erishganligini uning xotirasi faolligi namoyish qiladi. U o'zining uncha boy bo'lмаган shaxsiy tajribasiga asoslanib, she'r, hikoya, ertaklarni esda qoldirish uchun ta'limda takrorlash va turli qiziqarli yo'llar orqali va oson tushunilishi uchun turli metodikalaridan foydalanish zarur.O'qish, idrok qilish, o'zlashtirish texnikasi bilan yaqindan tanishishga erishiladi.Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof-olamdagи predmetlarini, insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.Bilishga nisbatan qiziqish yuqori bo'lganligi uchun tinmasdan turli savollar beradilar. Kichik mакtab yoshidagi bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi.Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.Binobarin ularning psixikasida ham o'zgarishlar sezilarli darajada bo'ladi.Bolaning mакtabga kirishi uning hayotida burulish chog' idir. Bola mакtabga kirib o'qiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy faoliyat o'qish bo'lib qoladi. Mäktabda bola tizimli ravishda yangiliklar oladi,bu o'quvchilarning kundan kunga orttirib borayotgan hilma-xil mavzudagi bilimlarning manbayidir.Bolaning bilimlarni sistemali tarzda o'zlashtirishi natijasida undagi bilimning doirasi kengayib boradi,aqliy jarayonlar rivojlanadi shu bilan bir qatorda bolaning emotsional-irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib rivojlna boshlaydi.Mäktabdagi ta'lim jarayonining o'zi bolaning sezgi,idrok,tafakkur,nutq va diqqatlariga yangi talablar qo'yadi.Kichik yoshdagи o'quvchilarning yuqorida ko'rsatilgan hilma-xil qiziqishlari bilan bir qatorda individual qiziqishlari ham tug'ula boshlaydi.Ba'zi o'quvchilar rassomlikka ko'proq qiziqsalar,ba'zilari musiqa sheriyatga muhabbat qo'yadilar. Kichik mакtab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri,unda o'ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir.Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim ko'nikma va malakalarni egallashga qartilmay,balki o'quvchanlik istagi aks ettirishda ham iboratdir. Kichik mакtab yoshdagи bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar.Kichik mакtab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib ular jismoniy,ijtimoiy va psixik, faollikdir.Jismoniy faollik-sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishda tabbiy ehtiyojdir.Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagи predmetlarni,insoniy munosabatlarni bilishga nisbatan qiziqishdir.Bolaning makatabada muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning mакtabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq.Bolaning mакtabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi. 5.Shaxsiy tayyorgarlik-motivatsion sohaning

rivojlanganlik darajasi..bilibish qiziqishning mavjudligi.ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bo'lishiga intilish,muhim baholanadigan faoliyatni bajarish-o'quvchi bo'lism; 6. Intellektual tayyorgarlik tevarak-atrofda mo'ljal ola bilish ,bilimlar zahirasining mavjudligi; idrok va ko'rgazmali-obrazli tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi.Umumlashtirish darajasi-narsa va hodisalarini farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi.7. Harakat tayyorgarligi.-mayda motorika;katta harakatlarni amalga oshrish (qo'l,oyoq,tana); 8. O'quv faoliyatiga tayyorgarlik:kattalarni diqqat bilan eshta olish va uning ko'rsatmalarini aniq bajarish.topshiriqlarni mustaqil bajarish;chalg'ituvchi omillarga e'tibor bermasdan topshiriqniga bajarishga kirishish.Bu davrda avvalo bilish sohalari,so'ngra esa emotsiyal motivatsion yo'naliish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi.U yoki bu yo'naliishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzilikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi.Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi,ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi,ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik,lingvistik,mantiqiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. O'quv faoliyati kichik mакtab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish ehtiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlarini erishgan muvaffaqiyatlarini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyatlari bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muhim. Kichik mакtab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik ehtiyoj hisoblanib, bu motiv ularga kuchli emosional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik mакtab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergen baholariga qarab, o'zlariga o'zlarini baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik mакtab davrida boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tishi nihoyatda muhimdir.1 Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar - o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyatlari tarkib topa boshlaydi. Kichik mакtab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin.Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topa boshlaydi. Bu yoshdagi bolalar soatlab yolg'iz holda sevimli

mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari mumkin va shular asosida ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi. Kichik maktab davridan boshlab o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga amaliy va psixologik jihatdan tayyorlashga e'tibor beriladi. Bu davr ichida bolalarda mehnatga nisbatan ongli, ijobiy munosabatda bo'lish asoslari tarkib topa boshlaydi.Ularda mehnatga havas uyg'onadi, mehnatga va mehnat ahllariga hurmat bilan qarash, ijtimoiy foydali ishlarda qatnashishga intilish singari fazilatlar tarkib topadi.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar zarur bo'lgan harakat va amallarni darhol o'zlashtirib va egallab ololmaydilar, ko'proq ortiqcha va chalkash harakatlar qiladilar. Mehnat jarayonidagi turlicha ish harakatlarini, chunonchi: tikish, to'qish, kiyish yoki taxtalarni randalash kabi ish harakatlarni qiynalmasdan va birmuncha silliq bajaradigan bo'lish uchun har bir ishda har qanday harakatlar qilish kerakligini va bu harakatlarning qay yo'sinda amalgalashini aniq bilib olish va esda qoldirish kerak bo'ladi. Harakatlarni qayta-qayta takrorlash, mashq qilib borish natijasida kichik yoshdagi o'quvchilarda uchrab turadigan ortiqcha va chalkash harakatlar yo'qolib boradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axlokiy onglari I va IV sinfdagi o'qish mobaynida muhim o'zgarishlarga uchraydi va axlokiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida insoniy an'analar asosida harakat qilishga o'rghanadi, o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola xulq-atvorining rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Kichik maktab davri bu anglanilgan va ixtiyoriy xatti-harakatlarga o'tish davridir. Bola faol ravishda o'zini o'zi boshqarishga, qo'yilgan maqsadlarga ko'ra o'zining faoliyatini tashkil etishga o'rghanish davridir. Kichik maktab davrida xatti-harakatlarning yangi shakllarini paydo bo'lishi bevosita o'quv faoliyati bilan bog'liqdir. Hech bir o'qituvchi mакtabга birinchi bor kelgan boladan o'zi o'rgatmagan arifmetik misol va masalalarni echishni talab etmaydi, lekin afsuski, juda ko'p o'qituvchilar ulardan qunt bilan o'qishni, uyushqoqlikni, ma'suliylilikni, tartibga aniq rioya etishni talab etadilar.Vaholanki, ushbu ko'nikmalar o'qituvchi tomonidan ma'lum odad va malakalarga o'rgatilinganidan so'nggina paydo bo'ladi. Demak,kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning his-tuyg'ulari ularning faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar o'zlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin bo'lib, bu hislar bolani yaxshi o'qishga ruhlantiradi. Ba'zan past baho olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o'qituvchining noto'g'ri reaksiyasi va kattalarning doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter

xislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlari uchun ijobjiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odamning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Biliishga qiziqish, taajjublanish va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsitz diqqat yuqori turadi. Lekin, maktabda o'qish birinchi yiliyoq o'quvchilarda ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Diqqatning bu turi B.T. Annoevning yozishicha, »... katta odamlar bilan bolalarning birgalika faoliyati va tarbiyaning maxsuli bo`lib hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o'sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va tafakkurning tarbiyalanishga bog`liqdir». Kichik yoshdagi o'quvchilarning ixtiyoriy diqqati to`g`risidagi masala bilan K.D. Ushenskiy ko`p shug'ullangan. U ba'zi pedagoglarning, kichik yoshdagi o'quvchilarda ixtiyorsiz diqqatning afzalligiga tayangan holda maktabdagagi barcha o'qish jarayonining faqat qiziqarli va maroqli qilib tashkil etish kerak degan fikrlarga qo`shilmagan. Demak, bolaning mактабга tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta. Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha yangi shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lган bosqichlarni o'taydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar xotirasining o'sishida ikkinchi xususiyat o'quvchilarda abtsrak tafakkurning o'sishi munosabati bilan boglik bo'lган katta uzgarishlardan iborat. Bolaning mактабда muvaffaqiyatli o'qishi ko`p jihatdan ularning mактабга tayyorgarlik darajalariga bog`liq. Bola avvalo mактабга jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo'yи esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va engil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, changida uchish, so'zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo'yicha mashg`ulotlarda bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, engil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasallikkardan xalos etish, ko'rish va eshitish qobiliyatiga alohida e'tibor berish, shuningdek, umurtqa pogonasining to'g`ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Shunday qilib, kichik mактаб yoshi 7-12 yoshli bolalarni o'z ichiga oladi. Bu davrda o'qish yetakchi faoliyatga aylanadi, o'qituvchining so'zi bola uchun senzetiv hisoblanadi. Intelektual refleksiya bu davrda paydo bo'lган yangi psixologik tuzilmadir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqola orqali siz o'zingizga ma'naviy ozuqa olishingizga shubha qilmaymiz. Maqola orqali siz bolaning mактабga kirishi, ya'ni hayotidagi burulish chog'idagi asosiy faoliyati psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Ushbu maqola orqali kichik mактаб yoshidagi

bolarning psixologik,fizalogik,va individual qiziqishlari borasidagi bilimlaringizni mustahkamlasangiz bu bizning yutug' imiz hisoblanadi.Kichik maktab yoshidagi bolalarni to'g'ri yo'naltira olsak, ularni qiziqishlarini inobatga olgan holda be'tibor qoldirmasligimiz, mavzularni tushuntirishda oson va sodda yo'llardan foydalanilsa, ma'qul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.E. G'. G'oziyev "Ontogenet psixologiyasi" Toshkent: "Nif MSh" 2020
- 2.Davletova Rimjon "Новости образования: исследование в XXI века" 2022.
- 3.Z. T. Nishonova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullayeva, M. X. Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi: Pedagogik psixologiya", Toshkent-2018
- 4.1. Z.T.Nishonova,N.G'.Kamilova,D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova<> Toshkent-2019 2.
- 5.SH.A.Do'stmuhammedova,Z.T.Nishonova,S.X.Jalilova,SH.K.Karimova,SH.T.Ali mbaev a<>Toshkent-2013

LIMFA SISTEMASI. LIMFA TIZIMI KASALLIKLARI. LIMFA TUGUNLARINI YALLIGLANISHI

Ibodullayev Hayitboy Ravshanbek o'g'li

Mehmonov Rahimbek Shuxratov

Toshkent davlat stomatologiya instituti talabalari:

Abdusamatova Iroda Ilhamovna

Anatomiya Kafedrasи ilmiy rahbari

Annotatsiya: ushbu maqolada limfa sistemasining tuzilishi, limfa tugunlari, limfa tugunlarini yalliglanishi, odamning limfa sistemasi-limfa kapilyarları turi, limfa tugunlari chigali, limfa tugunlari hamda ikkita limfa yo'lidan tashkil topganligi, limfa bilan oqib kelgan kasallik qo'zg'atuvchilarini limfa tugunlari hujayralari qisman yoki butunlay yutib yuborishi, spesifik limfadenitda limfa tugunining sil kasalligi haqida to'xtalgan.

Kalit so'zlar: limfa kapilyarları, bo'rtmalar, kolloid eritma, chigal, qovuzloq, suyak, suyak usti parda, tog'ay, ko'z oqi, gavhar, limfadenit.

Kirish: Limfa sistemasi (lotincha: *systema lymphaticum*) — odam va umurtqali hayvonlarda to'qima va a'zolardan limfa olib ketib, venoz sistemasiga quyadigan kapillyarlar va boshqa tomirlar, tuzilmalar. Odamning limfa sistemasi — limfa kapillyarları turi, limfa tomirlari chitali, limfa tugunlari hamda ikkita limfa yo'lidan tashkil topgan. Limfa sistemasi to'qimalararo suyuqlikning ortiqchasi chiqarish va uni venoz oqimga qayta o'tkizishda, to'qimalardan kapillyar qon tomirlarga so'rilmagan oqsil moddalar, kolloid eritmalarining o'zlashtirilishida qatnashadi. Limfa sistemasi yuraktomir sistemasiga kiradi. Limfa kapillyarları bosh qismi berk sirtmoq va bo'rtmalar hosil qiluvchi turli shakldagi naychalardan iborat. Ular bosh va orqa miya, taloq, tog'ay, ko'z oqi hamda gavhari va platsentadan tashqari barcha a'zolarda mavjud. a. Limfa kapillyarları to'ridan limfa tomirlari shakllanib, ularda limfa oqimini yo'naltirib turadigan klapanlar (qopqoqchalar) bo'ladi. Limfa tomirlari qovuzloqli chigallar hosil qiladi. Bu chigallardan a'zolar ichidagi limfa tomirlari shakllanib, ular a'zodan chiqadigan limfa tomirlariga aylanadi. Har bir ichki a'zoda yuza va chuqr joylashgan limfa tomirlari farq qilinadi. Odam tanasida ham teridan, teri osti yog qatlami va fassiyalardan boshlanuvchi yuza limfa kapillyarları bor. Chuqr limfa tomirlari suyak, suyak ust pardasi, bo'g'imlar, muskullar, nervlar va qon tomirlardan kapillyarlar bilan boshlanadi. Limfa tomirlari tegishli joylarda yo'g'onlashib, limfa tugunlarini hosil qiladi. To'qima suyuqligining bosimi, limfa yigilishi hamda gavda muskullarining qis-qarishi tufayli limfa Limfa sistemasi bo'ylab harakatlanadi. A'zodan tashqaridagi limfa tomirlari yaqinda joylashgan limfa tugunlariga quyiladi.

Limfaning hujayra elementlari limfotsitlar, monositlar va bir ozgina donali leykotsitlardan iborat. Limfa sistemasining organlarida qonning limfold elementlari hosil bòladi va barer funksiyasini òtaydi, yani organizmga kirib qolgan yot jism bakteryalarni zararsizlantiradi. Rak òsmalari limfa yòllari orqali tarqaladi. Limfa sistemasi qon tomirlar sistemasiga qo'shimcha bòlib, ularning kapillarlariga so'rila olmaydigan moddalarni to'qima va hujayralardan chiqarib turadigan qo'shimcha tomirlar sistemasidir.


Limfa kapillarlariga molekular og'irligi va hajmi katta bòlgan moddalar (oqsil moddalar, yog'lar, hujayralar, bakteriyalar, viruslar) so'rildi. Limfa to'qimalari - qonning shaklli elementlari bo'lgan limfotsit ishlab chiqaradi.

Limfa sistemasining quyidagi tarkibiy qismlari boladi: 1) limfa kapillarlari; 2) limfa kapillarlari to'ri; 3) limfa tomirlari; 4) limfa tugunlari; 5) asosiy limfa yo'llari.

Limfa kapillarlari to'qimalardan qovuzloq shaklida, berk kengayma holatda boshlanuvchi naychalar tizimidan iborat. Ular quyidagi sohalarda uchramaydi: 1) bosh miya va orqa miyada; 2) tog'ay moddalarda; 3) terining epidermis qavatida; 4) ichki a'zolaming epiteliy qatlamida. Limfa kapillarlari berk holatda boshlanib, limfa kapillarlari to'rini hosil qiladi. Undan limfa tomirlari boshlanib, bu tomirlar devori qalinlashadi va u silliq mushak tolalardan tuzilgan b o iib, uning ichida limfa suyuqligining bir tomonga oqishini ta'minlovchi klapanlar boladi. Limfa tomirlari ma'lum joylarda limfa tugunlariga bolinadi. Ular odamda aynilsa ko'p bo'lib, jag 'ostida, bo'yinda, traxeya va bronxlar atrofida, qorin bo'shlig'idagi a'zolarda, ichak tutqichida, chov sohasida, qo'lтиq osti, tirsak va tizza osti chuqurchasida uchraydi. Limfa tugunlari zikh biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan kapsula - cortex bilan o'ralgan. Bu kapsula limfa tugunlarining ichiga to'siqlar chiqaradi. To'siqlar orasida limfold (cortex) va mag'iz (medulla) moddasi shaklida joylashadi. Har bir limfa tugunchasiga bir necha limfa keltiruvchi tomir - vas afferentia quyiladi. Bu limfa keltiruvchi tomirlar kapsulani teshib o'tib, sinuslarga ochiladi. Limfa suyuqligiga limfa tugunlarida hosil boigan limfotsit qo'shilib, tugunlardan chiqib ketuvchi tomirlar - vasa efferentia ga o'tadi. Olib chiqib ketuvchi limfa tomirlarining miqdori kamroq, lekin diametri kattaroq boiadi. Limfa tugunlarining vazifasi: 1) limfotsit yetishadi; 2) limfa suyuqligi tozalanadi; 3) antitela ishlab chiqarib, baryerlik vazifasini o'taydi; 4) to'qimalar ushlanib qolib, mexanik filtr vazifasini o'taydi. Limfa tugunlari - immun hujayralarini o'z ichiga olgan kichik oval shakllanishlardir. Ular tananing turli qismlarida uchraydi, shuningdek bo'yin, qo'lтиq osti va chanoq sohalarida to'plamlarni hosil qiladi. Limfa tugunlarining asosiy vazifasi infeksiyaga qarshi kurasha oladigan hujayralarni to'plash va ular orqali oqadigan limfani filtrlashdir. Turli yuqumli kasalliklar jarayonida limfa tugunlari yallig'lanib, limfadenit rivojlanadi. Limfadenit turlari va bosqichlari Limfadenitning tasnifi ushbu kasallikning quyidagi turlarini ajratishni o'z ichiga oladi: - tez rivojlanayotgan infeksiyalar jarayonida sodir bo'lgan o'tkir limfadenit (masalan,

angina bilan); - surunkali infeksiyalar (sil, OIV infeksiyasi), onkologik kasalliklar jarayonida kechadigan surunkali limfadenit.

Jag' osti limfadeniti o'tkir nafas yo'llari infeksiyalari, tish kasalliklari, otit, sinusit, tonsillit bilan birga keladi. Xuddi shu sabablar bo'yin limfadenitini keltirib chiqaradi. Limfadenit turlari va bosqichlari Limfadenitning tasnifi ushbu kasallikning quyidagi turlarini ajratishni o'z ichiga oladi: - tez rivojlanayotgan infeksiyalar jarayonida sodir bo'lgan o'tkir (masalan, angina bilan); - surunkali infeksiyalar (sil, OIV infeksiyasi), onkologik kasalliklar jarayonida kechadigan surunkali limfadenit. O'tkir yoki reaktiv limfadenit, o'z navbatida, bir necha bosqichlardan o'tadi: - kataral (qon aylanishining kuchayishi, limfa tugunining immun hujayralari bilan to'yinganligi); - giperplastik (limfold to'qimalarining ko'payishi); - yiringli (davomli og'ir yallig'lanish jarayonida tugun to'qimalarining nekrozi). Yiringli limfadenit tugunning yiringli gazak olishi va atrofdagi to'qimalarga yiring tushishi bilan kechishi mumkin. Kasallikning yanada og'ir shakkari - fibrinoz (organni fibrin bilan singdirishi bilan), ihoroz (chirish), gemorragik (qonga singib ketish), nekrotik (limfa tugunlari to'qimalarining nekrozi). Nonspesifik jarayon stafilokokklar, streptokokklar va boshqa keng tarqalgan mikroorganizmlar tomonidan kelib chiqadi. Spesifik limfadenitda limfa tugunining sil kasalligi haqida gap boradi. Limfadenitni davolash birinchi alomatlar paydo bo'lishi bilanoq boshlanishi kerak. Limfadenit sabablari Limfadenitning quyidagi turli sabablari mavjud: Infeksiyalar Chet moddalar yoki antigen ta'siriga javoban immunitet tizimi faollashadi, bu esa limfa tugunlarining kattalashishi va og'rig'iga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, qo'lтиq limfadeniti infeksiyalangan shikastlanish yoki tananing yuqori qismi to'qimalarining saramas yallig'lanishi jarayonida yuzaga keladi. Ba'zi infeksiyalar (OIV, mononukleoz, zamburug'li va parazitar infeksiyalar) limfa tugunlarining umumiy kengayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, uzoq muddatli chov limfadeniti OIV infektsiyasining dastlabki bosqichlariga xosdir. Tizimli yallig'lanish kasalliklari Tizimli teri sili, revmatoidli artrit va boshqa autoimmun jarayonlarda limfa tugunlari yallig'langan immunitet hujayralari bilan to'yinadi, bu ko'pincha ayollarda uchraydi. Onkologik kasalliklar Zararli hujayralar kasallangan organdan limfa tomirlari orqali kirib borishi tez o'sib boruvchi zikh shakllanishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Saraton jarayonlaridan tashqari, kasallikning sababi qon kasalliklari (leykemiya, limfoma) bo'lishi mumkin. Limfadenitning belgilari va tashxisi Limfadenit kabi patologiyada alomatlar asosiy kasallik bilan belgilanadi va limfa tugunlariga zarar yetkazilganligi belgilari paydo bo'ladi. Limfadenit alomatları: - bo'yin, qo'lтиq osti va chov qismida kengaygan, og'riqli limfa tugunlari; - isitma, burun bitishi, tomoq og'rig'i; - oyoq qo'llarining shishishi; - tunda terlash; - limfa tugunlari zichligining oshishi. Jag' osti limfadeniti o'tkir nafas yo'llari infeksiyaları, tish kasalliklari, otit, sinusit, tonsillit bilan birga keladi. Xuddi shu sabablar bo'yin limfadenitini keltirib chiqaradi



Limfadenitni davolash Terapiya asosiy kasallikka bog'liq. Odatda, o'tkir nafas olish yo'llari infeksiyasidan tuzakgan bolalarda va kattalarda limfadenitni maxsus davolash talab qilinmaydi.

Boshqa hollarda, quyidagi usullar buyurilishi mumkin:

- og'riq qoldiruvchi vositalar va yallig'lanishga qarshi dorilar qabulqilish;
- antibiotikli davolash;
- limfa tugunlari yiringli gazagini ochish

Xulosa: Qisqacha qilib aytganda limfa sistemasi tanani himoya qilish uchun tanadagi qon aylanish tizimi bilan birgalikda ishlaydi. Limfa suyuqligi bu tizimning asosi bo'lib, organizmdagi hujayralar va to'qimalar o'rtaida ozuqa moddalari, gormonlar va boshqa moddalarni tashishga yordam beradi. Bundan tashqari, limfa tugunlari va limfotsitlar kabi tuzilmalar immunitet tizimining muhim qismi bo'lgan immunitet hujayralarini o'z ichiga oladi va bu hujayralar infektsiyalarga qarshi kurashishga yordam beradi. Shunday qilib, limfa tizimi tanani infektsiyalardan himoya qiladi va umuman tanadagi faoliyatni tartibga solishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org> Arxiv.uz
2. <https://shifo.uz>
3. Odam anatomiysi: F.N. Bahodirov 243-244 betlar
4. Atlas 2: N.K.Ahmedov (2005-y)

ORQA MIYA TUZULISHI VA ORQA MIYA PARDALARI

Toshkent davlat stomatologiya instituti 104B
stomatologiya fakulteti talabalari:

Djalilov Jahongir Farxodovich

Baxranov Izzat Shuxrat o'g'li

Anatomiya Kafedrasi ilmiy rahbari:

Abdusamatova Iroda Ilhamovna


Annotatsiya: Ushbu maqolada orqa miyaning o'ziga xos xususiyatlari, orqa miya nerv signallari, bo'yin kengaytmasi, bel kengaytmasi, odam orqa miyasi segmentlari va ularning anatomik rivojlanishi, funksional ahamiyati va potentsial klinik oqibatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Orqa miya, orqa miya topografiyasi, pardalar, anatomiya, fiziologiya, nevrologik kasalliliklar, orqa miya ko'ndalang kesimi, orqa miya nervlari, dorsolateral, markaziy nerv sitemasi, spinal nervlar.

Kirish: Markaziy nerv sistemasining umurtqa kanali (canalis vertebral) ichida joylashgan qismiga orqa miya deb aytildi. Orqa miya uzunligi 41-45 sm bo'lib, silindrik shaklga ega. Diametri – 1-1,5 sm. Orqa miya kulrang va oq moddalarga bo'linadi. Kulrang moddada neyronlarning hujayra tanalari, oq moddada esa orqa miya yuqoriga va pastga signallarni uzatuvchi nerv tolalari (aksonlar) mavjud. Orqa miyaning ustki chegarasi katta ensa teshigi (foramen occipitale magnum), ya'ni uzunchoq miyaning pastki qismida joylashgan piramidal kesishuv (decussatio pyramidum) sohasiga to'g'ri keladi. Bu joy C1 bo'yin umurtqasining ustki qismi bo'lib, undan birinchi bo'yin segmenti C1 ildizchasi chiqadi.


Orqa miya segmentlari va ildizchalari (1-rasm) topografiyasi miyaning pastki chegarasi konus (conus medullaris) shaklida kichrayib boradi va L2 umurtqaga yetmasdan tugaydi. So'ngra terminal ip (filum terminate) boshlanadi.

Orqa miyada ikkita kenglik farqlanadi (2-rasm): bo'yin kengligi (intumescensia cervicalis) va bel kengligi (intumescensia lumbalis). Bo'yin kengligi C5-8, Th1 segmentlardan tashkil top-gan bo'lib, qo'llarning segmentar innervatsiyasini ta'minlaydi. Bel kengligi Th12, L1-5, S1-2 segmentlardan iborat bo'lib, oyoqlar segmentar innervatsiyasiga mas'ul.



Orqa miya (va miya) kanalni o'rabi turuvchi miya pardalari(lot. meninges) deb ataluvchi uch qavat to'qima yoki membranalar tomonidan himoya qilinadi(3- rasm). Qattiq parda eng tashqi qavat va qattiq himoya qoplamini hosil qiladi. Qattiq parda va atrofdagi umurtqasuyaklari orasidagi bo'shliq epidural bo'shliq deb ataladi. Epidural bo'shliq yog' to'qimasi bilan to'lgan va u o'zidan qon tomirlar tizimini saqlaydi. To'rsimon parda, o'rta himoya qavati, ochiq, o'rgimchak to'ri kabi ko'rinishi tufayli shunday nomlangan. To'rsimon va ostida yotuvchi yumshoq parda orasidagi bo'shliq (subaraxnoid) bo'shliq deb ataladi. Subaraxnoid bo'shliqda miya suyuqligi bo'ladi, uni lyumbal punksiya muolajasi orqali tekshirish mumkin. Nafis yumshoq parda, eng ichki himoya qatlqidir va orqamiya yuzasi bilan zinch bog'langan. Orqa miya qattiq pardaga birikuvchi tishsimon boylamlar orqali stabilizatsiya qilinadi va bu boylamlar yumshoq pardadan lateral, orqa va oldingi ildizlari orasidan chiqadi.Dural qopcha ikkinchi dumg'aza umurtqasi sohasida tugaydi.Ko'ndalang kesimda, orqa miyaning periferik qismi sezuvchi va harakatlantiruvchi aksonlardan iborat neyronaloq modda traktlarini saqlaydi. Bu periferik sohadan ichkarida kulrang modda joylashgan va unga kapalak shaklini beruvchi uchta kulrang ustunlar bo'ylab joylashgan nerv hujayralari tanalaridan iborat. Bu markaziy soha to'rtinchi qorinchaning davomi bo'lgan markaziy kanalni o'rabi turadi va unda miya suyuqligi bo'ladi.Orqa miya ko'ndalang kesimda ellips shaklida, dorsolateral qisilgan. Ikkita mashhur o'yiqlar yoki egatlar uning uzunligi bo'ylab ketgan orqa o'rta egat(lot. sulcus medianus posterior) orqa tomondag'i va oldingi o'rta egat(lot. sulcus medianus anterior) oldingi tomondag'i egatlardir. Odam orqa miyasi segmentlarga bo'lingan bo'lib, u yerda orqa miya nervlari juftlari (aralash;


sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil bo‘ladi. Oltitadan sakkiztagacha harakatlantiruvchi nerv ildizchalari o‘ng va chap tomondan ventrolateral egatlardan chiqib, juda tartibli joylashgan. Nerv ildizchalari birlashib nerv ildizlarini hosil qiladi. Shunga o‘xshash, o‘ng va chap dorsolateral egatlardan chiquvchi sezuvchi nerv ildizchalari sezuvchi nerv ildizlarini hosil qiladi. Oldingi (ventral) (harakatlantiruvchi) va orqa (dorsal) (sezuvchi) ildizlari birlashib orqa miyaning har tomonida bittadan orqa miya nervlarini(aralash; sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil qiladi. Orqa miya markaziy va periferik nerv sistemalarini ajratib turuvchi demarkatsiyani hosil qiladi.Kulrang ustun, (uch kulrang ustunlar sohalari kabi) orqa miya markazida, kapalak shaklida vainterneyronlar, harakatlantiruvchi neyronlar, neyrogliya hujayralari tanalari va miyelinlanmagan aksonlardan iborat. Oldingi va orqa kulrang ustun kulrang modda proyeksiyalari hisoblanadi va orqa miya shoxlari sifatida mashhur. Kulrang ustunlar va kulrang kommissura birgalikda "kulrang H"ni hosil qiladi.Oq modda kulrang moddadan tashqari tomonda joylashgan va deyarli to‘liq harakatlantiruvchi va sezuvchi miyelinlangan aksonlardan iborat. Oq modda "ustunlari" orqa miya bo‘ylab pastga yoki yuqoriga informatsiya tashiydi.Orqa miya aslidaconus medullarisdeb ataluvchi sohada tugaydi, lekinyumshoq pardafilum terminale deb ataluvchi kengayma sifatida davom etadi, natijada orqa miya dum(lot. coccyx)gacha boradi.Cauda equina("ot dumi") conus medullarisdan pastga, umurtqa pog‘onasi bo‘ylab dumgacha tushuvchi nervlar to‘plami. Cauda equina hosil bo‘lishiga sabab orqa miya tahminan to‘rt yoshda o‘sishdan to‘xtaydi, umurtqa pog‘onasi bo‘lsa voyaga yetgungacha uzayishda davom etadi. Bu dumg‘aza spinal nervlarini yuqorigi bel sohasida paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.



3-rasm

Odam orqa miyasida 31 ta segment mavjud(4-rasm): Bo‘yin segmentlari 8 juft bo‘yin nervlarini hosil qiladi (C1 spinal nervlar katta teshik va C1 umurtqa orasidan chiqadi; C2 nervlar C1 umurtqa orqa ravog‘i va C2 ning laminasi orasidan chiqadi; C3–C8 spinal nervlar umurtqalararo teshikdan, tegishli umurtqaning yuqorisidan

chiqadi, C8 juftidan tashqari, u C7 va T1 umurtqalar orasidan chiqadi), ko'krak segmentlari 12 juft ko'krak nervlarini hosil qiladi, bel segmentlari 5 juft bel nervlarini hosil qiladi, dumg'aza segmentlari 5 juft dumg'aza nervlarini hosil qiladi, dum segmenti homilada umurtqa segmentlari orqa miya segmentlari bilan mos keladi. Ammo umurtqa pog'onasi orqa miyaga nisbatan uzunroq o'sgani sababli, voyaga yetganlarda orqa miya segmentlari umurtqa segmentlariga to'g'ri kelmaydi, xususan pastki orqa miyada. Masalan, bel va dumg'aza orqa miya segmentlari T9 va L2 umurtqalari sohasida joylashgan va orqa miya tahminan L1/L2 umurtqa sohasida conus medullaris deb ataluvchi tuzilmani hosil qilib tugaydi. Garchi orqa miya hujayra tanalari tahminan L1/L2 umurtqa sohasida tugasada, har bir segmentning orqa miya nervlari mos umurtqa sohasidan chiqadi. Pastki orqa miya uchun bu shuni anglatadiki, ular o'z ildizlaridan birmuncha pastroqda umurtqa pog'onasidan chiqadi. Bu nervlar ildizlaridan chiqish nuqtalarigacha borar ekan, pastki segmentlar ot sumi deb ataluvchi tutamni hosil qiladi.



4-rasm

Xulosa: Orqa miya, silindrsimon nerv tolalari to'plami, miya va tananing qolgan qismi o'rtasida hissiy va motor signallarini uzatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Orqa miya miya va tananing qolgan qismi o'rtasida signallarni uzatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu ongli fikrga ehtiyoj sezmasdan ma'lum ogohlantirishlarga tezkor, avtomatik javob beradigan refleksli harakatlarda ishtirok etadi. Uning umumiy tuzilishi va funktsiyalari yaxshi tushunilgan bo'lsa-da, so'nggi tadqiqotlar "orqa miya pardalari." Neyron yo'llari va qo'llab-quvvatlovchi to'qimalarning murakkab joylashuvi bilan ajralib turadigan bu pardalar tadqiqotchilar va klinisyenlar orasida qiziqish uyg'otdi. Ushbu maqola orqa miya anatomiysi va funktsiyasi haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishga qaratilgan orqa miya pardalari atrofidagi sirlarni ochish uchun sayohatga chiqadi. Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish, orqa miya pardalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning kamligini ko'rsatadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org> Arxiv.uz
2. <https://shifo.uz>
3. Odam anatomiyasi: F.N. Bahodirov 243-244 betlar
4. Atlas 2: N.K.Ahmedov (2005-y)
5. Z. Ibodullayev. Nevrologiya. Qo'llanma. Toshkent, 2017., 404 b
6. Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b. 7. Ibodullayev ensiklopediyasi

O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYA DARSIGA VA SPORTGA QIZIQTIRISH

Toshaliyeva Yulduzzon Mirzamatovna

*Farg'on'a viloyati Toshloq tumani 26-umumiyl o'rta ta'limg
mektebi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'limg muassasalarida o'quvchilarni jismoniy tarbiya darsiga va sportga qiziqtirish muammolar, O'quvchilar harakati va sport mashg'ulotlari jarayonida psixikasini rejalashtirish asosida o'zini - o'zi boshqarish, takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirishni pedagogik jixatlari haqida fikr yuritildi.

Tayanch iboralar: O'zbekiston sporti, milliy kurash, qiziqish, burch, doimiylik, ma'suliyat, jismoniy faoliyat va sport, irodasizlik, dostonlarda sport o'yinlari, psixologik tayyorgarlik.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'limg tizimini amaliyotga tatbiq etish asosida bilim berish jarayonining potentsial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bosqichi davom etmoqda. Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'limg tizimining eng asosiy maqsadlardan hisoblanadi. Uzluksiz ta'limg jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir. O'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish yo'llari va shartsharoitlari tadqiq etish muammosini o'rganilishi milliy tarbiya muamosiga yanada chuqurroq kirib borishga va bu muammoga ilmiy-amaliy jihatdan oydinlik kiritishga asos bo'la oladi. Jismoniy tarbiya darslarini to`g`ri tashkil etish va o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishni tadqiqot asosida isbotlab berish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Inson organizmi va miyasi o'zining ma'lum tizimlari asosida vaqtga qarab ish qobiliyatlarning imkoniyatlarini o'zgartirib, o'sib borishi natijasida tashqaridan olingan turli - tuman axborotlarni to'la qaytadan ishlab berish imkoniyatiga ega. Fanning so'nggi yutuqlari bizga quyidagi ma'lumotlarni beradi: inson miyasining tuzilishi, uning ishchanligi va kuch imkoniyatlari cheksiz. Inson o'zining mehnat jarayonida miyaning fikrlash qobiliyatining eng oz oz qismi bilan ishlashga odatlangan. Agar biz o'z miyamiz ishlash imkoniyatining yarim kuchi bilan ishlashga odatlanganmizda edi, o'nlab xorijiy tillarni va katta enisklopediyalarni boshdan oxirigacha o'zlashtirib olgan bo'lar edik. Hozirda umumta'limg makteblari va oliy ta'limg muassasalarida o'quv rejalarini o'rtacha oddiy kishi o'zlashtirish mumkinligi aniqlangan. Kelgusida buyuk insonlar ko'zga ko'rinxaymaydigan tabiatning inson miyasiga bergen katta kuchi, imkoniyatlarini ishlatishga tuyassar bo'ladilar. Hozirgi

vaqtida olimlar insondagi faol nuqtalarning ishlash qonuniyati va faoliyatini chuqur o‘rganmoqdalar. Yaqin kunlarda bu muammolar hal qilinsa, sekin ta’sir qilish orqali inson faoliyatini boshqarish imkoniyati tug‘iladi. Bunday boshqarish yo‘li bilan inson faqat kasal organizmni davolabgina qolmasdan, balki uzoq umr ko‘rish, yaxshi kayfiyat va jismoniy o‘sish xususiyatiga ham ega bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, yoshlar o‘z organizmlarining funksiyalarini yaxshi bilishi, o‘z ruhiy holatining sirlarini o‘rganishi orqali kelgusida dolzarb muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib inson psixikasini kamol toptirish orqali yanada kuchliroq, bilimliroq, aqlliyoq va insonparvarroq bo‘lib yetishadi. O‘quvchilar harakati va sport mashg‘ulotlari jarayonida psixikasini rejalashtirish asosida o‘zini - o‘zi boshqarish, takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu uslub talabiga ko‘ra o‘quvchi o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, o‘zining kuchiga ishonch hosil qilishi natijasida psixika o‘zini - o‘zi rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Psixika o‘zini - o‘zi rejalashtirishda maqsad harakati tayanch nuqtasini vujudga keltiradi. Agar o‘quvchining sportga qiziqishi kuchli bo‘lsa, uning hayotidagi boshqa tomonlar ham shunga bog‘liq bo‘ladi va shunga bo‘ysinadi. Buning uchun maqsad aniq va barqaror bo‘lishi shart. O‘quvchilar psixikasini to‘g‘ri rejalashtirish uchun o‘quvchining musobaqadan oldin paydo bo‘ladigan qaltirash va jonsizlik holatini bartaraf qilish maqsadida maxsus mashg‘ulotlar tashkil etish, ijobiy hissiyotlarni hosil qilish, dunyo qarashini o‘stirish mumkin. O‘quvchilarni butun jahondagi yangiliklarni, o‘zgarishlarni bilib borishga undagi haqiqatlarni ochishga, insondagi tabiat go‘zalligini his qilishga, o‘zida yuqori insoniy hislatlarni namoyon qilishga, ichki ruhiy va jismoniy, aqliy imkoniyatlardan samarali foydalanishga odatlantirish lozim. Bu vazifani bajarish o‘qituvchilar va murabbiylar zimmasiga tushadi. Ba’zi o‘quvchi - yoshlarda uchraydigan ruhiy faollilikning zaifligi, dangasalik, fikrlash qobiliyatning torligi, tashabbussizlik qanday va qaerdan paydo bo‘ladi? Tabiiyki, bolalikdan ilm - fanga intilish hayotiy zaruratdir. Biroq ayrim hollarda ota - onalar, tarbiyachi va o‘qituvchilarning e’tiborsizligi natijasida ba’zi o‘quvchilar o‘z faoliyatlarida tabiat va jamiyat sirlarini tushunaolmay turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Yoshlar ertalabki umumiyligi gimnastika mashqlari bilan mustaqil shug‘ullanishga odatlanmaganliklar sababli jismoniy, aqliy va ruhiy to‘siqlarga duch keladi. Yuksak ma’naviy va estetik xis - tuyg‘ularning yaxshi rivojlanmaganligi ayrim o‘quvchi yoshlarning jamoat joylarida o‘zini tutishida ham seziladi. Bunday sifatlarning yetishmasligi o‘quvchilarni giyohvandlikka berilishiga, hatto turli oqimlarga qo‘shilib ketishiga ham sabab bo‘ladi. Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o‘rgatish metodikasini bilishni talab qiladi. Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan

mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. Maktab yoshi harakatga o`rgatish uchun eng qulay yoshdir. Xuddi mana shu yillarda bolalar yuqori egiluvchanlikga, kuchli va tez nerv qo`zg`olishiga ega bo`ladilar va shunga ko`ra harakatlarning shartli reflekslarini yengil hosil bo`lishi bilan ajralib turadilar. 14-15 yoshda harakat analizatorlarining rivojlanganligi me`yoriga etadi. Maktabni tugallash davriga kelib o`quvchilar xilmal-xil darajadagi harakat malakalariga ega bo`ladilar. Bu o`z navbatida jismoniy mashqlarni, mehnat faoliyatida va ijtimoiy hayotda turmushda, o`zlarining sog`ligini mustahkam-lashga, jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qo`llay oladilar. Darsni yuqori saviyada o`tkazish, dars davomida o`quvchilar faolligini ta`minlash, beriladigan vazifa, ko`rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondoshishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg`otish o`qituvchining nafaqat kasbiy mahorati va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomasiga, balki uning shaxsi va insoniy fazilatlariga ham bevosita bog`liqdir. Maxsus jismoniy tayyorgarlikka umumiy vaqtning 10% ajaratilib, u asosan umumiy mashqlanganlikni saqlab turish va maxsus mashqlanganlik va ish qobiliyatini o`stirishga erishish bilan uzviy bog`liqdir. Bunda asosiy e`tiborni ish qobiliyatini tez va to`liq tiklab olishga yordam beruvchi vositalarga qaratish lozim. Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda asosan e`tibor tezkorlik, tezkorkuchlilik va maxsus chidamkorlikni (ayniqsa sakrashda va zarbali harakatlarda) sifatlarini rivojlantirishga yo`naltirilishi kerak [8,9]. O`rgatish uslublari yordamida, bilim, ko`nikma va malakalarni egallah, harakat qobiliyatlarni, irodaviy va ahloqiy sifatlarni rivojlantirish vazifalari amalga oshiriladi. Murabbiy mashg`ulotlarda u yoki bu harakat faoliyatini o`rgatadi, tushuntiradi va ko`rsatadi, shug`ullanuvchilar esa uni egallab oladilar. Mashg`ulotlarda o`rgatish uslublarini tanlashda, pedagogik vazifa, material mazmuni va o`quvchilar tayyorgarligini e`tiborga olish lozim. Jismoniy tarbiya darslari va sport mashg`ulotlari jaryonida asosan uchta o`rgatish uslublari mavjud bular: so`z uslubi, ko`rgazmali uslub va amaliy uslublar. So`z va ko`rgazmalilk uslublari bevosita harakatlarni amalda qo`llash, ya`ni mashqlarni bajarish uchun zamin yaratadi. Barcha uslublar o`zaro bir-biri bilan bog`liq holda kompleks qo`llaniladi [4,7]. Jismoniy mashqlarni to`g`ri qo`llash, ularni bolalar qanday o`zlashtirayotganligini nazorat qilib borish, shu bolalardagi jismoniy sifatlarni, uning qaddiqomati, jismoniy va funksional taraqqiyoti to`g`ri yo`nalishda tarbiyalanib borishiga imkon yaratadi [10]. Ma`lumki, insonning jismoniy sifatlari uning tug`ilishidan boshlab shakllana boradi. Lekin, uning bolaligida shu sifatlar qanday darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o`zlashtirib olishi nafaqat uni o`sib, yashab kelayotgan muhitga bog`liq, balki bolaning muayyan sifatini qanday vositalar yordamida rivojlantirilishi bilan belgilanadi. Shu bilan bir qatorda harakatni turi, yo`nalishi va qanday maqsadga qaratilganligiga (kasb, ro`zg`or ishi, sport, harbiy faoliyat va h.k.) qarab, har bir jismoniy sifatni shu harakat ijrosidagi o`rni turlichcha bo`ladi. Shunday bo`lsada, turli kasb faoliyatlarida yoki sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral ahamiyati

o`ziga xos ulushga ega bo`ladi. Ammo qanday bo`lmisin, ko`pgina tadqiqotchilarning fikricha, barcha harakat faoliyatida ayrim jismoniy sifatlarning ustuvorligi darhol ko`zga tashlanadi. O`quvchilarning umumta`lim maktab va professional ta`limda jismoniy mashg`ulot hamda sportning odam organizmiga ta`sirini chuqur anglab etmasligi, o`zi sevgan birorga sport turi bilan mustaqil mashq qilishni o`rganmaganligi natijasida talabalik davrida ham jismoniy tarbiya me`yorlarini topshirish jarayonida yaxshi yutuqlarga erisha olmaydi. Buning sabablari quyidagilar: ota – onalarning o`z farzandlariga bilim olish va mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug`ullanishi uchun shart - sharoit yoki rejim yaratib bermasligi: - ba`zi o`qituvchilarning o`quv dasturi va o`qitish uslublarini egallashda, mantiqan tushunishda qobiliyatsizligi; o`quvchilarda jismoniy harakat va sportga oid ko`nikma va malakalarning qiyinchilik bilan hosil bo`lishi; - o`quvchilarning yoshiga, qobiliyatiga, kuchiga nisbatan qo`yilayotgan talablarning mos kelmasligi; - o`quvchilarga jismoniy mashg`ulotlarning majburan o`rgatilishi. Bu sabablar o`quvchilarning haddan ortiq charchashiga va asabiy holatning paydo bo`lishiga olib keladi, ularning jismoniy tarbiya darsiga, mashg`ulot va sportga bo`lgan qiziqishlarini pasaytirib yuboradi. Hozirgi davrda o`quvchilarning jismoniy faoliyat va sport sohalarini yaxshi o`zlashtira olmasliklari sabablarini o`rganishda mutaxassislarini eng muhim muammolaridan biri bo`lib kelmoqda. O`quvchilarda jismoniy va psixologik jihatdan qoloqlikning bir qancha sabablari mavjud ekanligi aniqlangan: 1) ota - onaning ichkilikka berilishi oqibatida o`quvchi aqlining pastligi, jismoniy jihatdan zaifligi; 2) yoshlikdan bola tarbiyasiga alohida e`tibor berilmaganligi yoki miya va ruhiy asab kasalligiga chalinganligi; 3) o`quvchining irodasizligi sababli, birorta faoliyat turiga qiziqmasligi. Bu salbiy holatlar natijasida o`quvchi jismoniy chiniqishda va bilim olishda nochor ahvolga tushib qolgan, ruhiy zaiflikdan qiynalayotgan o`quvchilar bilim olishda yoki jismoniy va ota - onasi va jismoniy tarbiya o`qituvchisi tomonidan qo`llab - quvvatlanishi lozim. Ba`zi jismoniy tarbiya mutaxassislari bunday o`quvchini yanada qattiqroq taqib ostiga olishi, yomon baho qo`yishi oqibatida uning jismoniy tarbiya darsiga va sportga bo`lgan qiziqishini mutlaqo pasayib ketishiga sabab bo`ladi. Jismoniy tarbiya o`qituvchisining o`quvchilarga nisbatan e`tiborsizligi yoki yetarli darajada nazar pisand qilmasligi o`quvchilarning jismoniy tarbiya darsidagi davomatinini pasaytiradi, bu o`quvchida havotirlanish va tashvishlanish holatini vujudga keltiradi. O`qituvchining uzluksiz ravishda o`quvchi shaxsini hurmat qilmasligi masalan, `Sen gavdangni ko`tar olmaysan`, `Sen hech qachon ikkidan chiqmaysan` kabi iboralar bilan munosabat qilish o`quvchi psixologiyasiga salbiy ta`sir ko`rsatadi, o`quvchi harakterida qaysarlik, o`jarlik xususiyatlarini paydo qiladi. Vaholangki, o`qituvchining o`zi o`quvchilarga jismoniy ta`lim asoslarini o`rgatishda o`quvchini nochor ahvolga tushirib qo`yanligini o`ylab ham ko`rmaydi. Natijada o`quvchining ongiga `Mening jismoniy zaifligimning asosiy sababi

qobiliyatsizligimda bo‘lsa kerak’, - degan fikr paydo bo‘ladi va o‘quvchining ruhan qiyinalishiga olib keladi. Hatto ba’zi bir o‘quvchilar jismoniy tarbiya darsiga qatnashmaydigan, sport bilan shug‘ullanmaydigan bo‘lib qoladi. O‘quvchining sport bilan shug‘ullanishga layoqatsizligi tashqi sharoitlarning ta’siri natijasida ham bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘quvchi agar sport bilan shug‘ullanib, faqat bir fandan o‘zlashtirishda orqada qolsa, u holat o‘quvchining boshqa fanlarni yaxshi o‘zlashtirishga salbiy ta’sir etmaydi. Lekin o‘quvchining shu o‘zlashtirmagan faniga bo‘lgan qiziqlishi pasayib ketadi, bunday vaziyatda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining pedagogik mahorat qobiliyati asosiy vazifani bajaradi. Uning pedagogik mahorati bunday holatga yo‘l qo‘yilmaslikka yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchining jismoniy tarbiya darsida sport turlari bo‘yicha belgilangan ko‘rsatmalarni me’yorlarni topshirish jihatidan qobiliyatlari har xil bo‘ladi: yil davomida jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanib yurgan ayrim o‘quvchilar, ba’zi bir sabablarga ko‘ra (oilaviy janjallar yoki organizmdagi ruhiy va fiziologik o‘zgarishlar natijasida) yaxshi ko‘rsatkichlarga erisha olmaydi. Lekin kutilmaganda ‘o‘rtacha’ ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan o‘quvchi me’yorlarni yaxshi topshirishga muvaffaq bo‘ladi. Buning sababi shundaki, o‘quvchi hayajonlangan holatida jismoniy qobiliyatlarini masimal darajada namoiyish qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Umumta’lim maktabda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining maqsadi o‘quvchilarning sevimli sport mashg‘ulotlari yordamida darsga bo‘lgan qiziqlishini oshirish, mustaqil mashq qilishiga odatlantirish, umidsizlikka va dangasalikka berilishiga yo‘l qo‘ymaslik. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi maktabdagagi psixolog yoki tajribali o‘qituvchilar bilan birgalikda o‘quvchining jismoniy tarbiya darsiga bo‘lgan qiziqlishini yoki sport turlarini o‘zlashtirishdagi ruhiy va aqliy to‘sqliarni yengishda yordamlashsa, o‘quvchining o‘qish va sport faoliyatida uchraydigan salbiy asteniksovub ketish hissiyotlarini o‘z kuchi bilan yengib o‘tishga o‘rgatsa, o‘quvchining darsga, sport bilan shug‘ullanishga bo‘lgan faollik darajasi yanada rivojlanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchini jismoniy mashqlarni bajarayotganida, boshqa bir o‘quvchi shaxsi bilan toqqoslamaslik zarur. O‘quvchining jismoniy tarbiya darsiga qiziqmasligi, birorta sport turi bilan shug‘ullanishda yalqovligi, uyga berilgan jismoniy mashqlarni mustaqil bajarmasligining asosiy sabablari, ko‘p jihatdan, maktabda jismoniy tarbiya darsining sifatsiz o‘tkazilishi, o‘qituvchining jismoniy tarbiya va sportga doir bilimlarining yaxshi rivojlanmaganligi, o‘quvchining birorta sport turiga qiziqtirishga ijtimoiy tafakkurining zaifligi, pedagogik mahorat va bilim malakalarining yaxshi tarkib topmaganligidadir. Ayni bir xildagi qiziqlish - xavaslarning kuchi turli o‘quvchilarda turli darajada bo‘ladi. Kuchli qiziqlish, ko‘pincha, kuchli hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lib, sportchida ehtiros tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek bokschisi Muhammadqodir Abdullaev boksga yuqori darajada ehtirosli qiziqlishida zo‘r havas, chidam, sabr - toqat va sabotlilik singari irodaviy sifatlarning mukammaligi bois Olipiada championi bo‘ldi. Maktabda

o'quvchining sport turlari bilan shug'ullanishiga qiziqishining o'sishi o'quvchining ichki dunyosiga, ma'naviy tarbiyasiga hissiyotlariga ham bog'liq bo'ladi. O'qituvchining jismoniy tarbiya darsini qiziqarli tashkil etishi o'quvchilarning sportga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning xotirasida o'rganilgan harakatli o'zin turlari va nomlarining uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi, o'quvchining sportga qiziqishi ularda aqliy, ahloqiy sifatlarni rivojlantirish bilan birga, o'quvchi shaxsini to'g'ri yo'naltirishga ham katta ta'sir etadi. O'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni o'stirish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur: 1. O'qituvchi jismoniy tarbiya darsi jarayonida o'quvchilar oldiga sport bilan bog'liq bo'lgan muammoli masalalarni qo'yishi va bu muammolarni yechishda, har bir o'quvchining o'zini mustaqil izlanishga odatlantirishi lozim. Natijada o'quvchi sport sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishda, katta ehtiroslilik bilan yangi taktik musobaqalashish uslublarini izlaydi va qiyinchiliklardan qo'rmaydigan bo'ladi. 2. O'qituvchi o'quvchilarning jismoniy mashg'uloti va sport faoliyatini qiziqarli tashkil etsa, darsda o'quvchilarni zeriktirib yoki charchatib qo'ymasa, o'quvchilar o'zlari o'rganayotgan har bir sport turining inson hayoti uchun muhim ekanligini tushunib oladi. 3. O'tilayotgan jismoniy tarbia dars materiallarining mazmuni haddan ortiq yengil yoki qiyin bo'lsa, o'quvchilardagi darsga bo'lgan qiziqishini pasaytirib yuboradi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning yoshi, kuchi, qobiliyatiga qarab materiallar tanlashi o'quvchilarning jismoniy sifatlarini ko'proq kuzatib borishi, baholashi, tekshirishi, ularni bajariladigan mashqlarga qiziqtira bilishi lozim. 4. O'qituvchi o'quvchilarning sport sohasida yetuk sportchi bo'lishi to'g'risida qancha ko'p qayg'ursa, g'amxo'rlik qilsa, o'quv va sport jarayonlariga nisbatan kuchli hissiyot uyg'otsa, o'quvchilarda sportga bo'lgan qiziqishlari shunchalik kuchli bo'ladi. Hozirgi davrda ba'zi bir jismoniy tarbiya o'qituvchilari darsni mustahkamlash niyatida o'tilgan darsni takrorlayveradi, o'quvchini zeriktiradigan usulublardan foydalanishga harakat qiladi. Lekin bu holat o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi va jismoniy tarbiya darsidan bezdiradi. Maxsus darsliklar va o'quv qo'llanmalarning yetishmasligi darsni ijobiy o'tishiga to'sqinlik qiluvchi omildir. Ammo o'z ustida ko'p ishlaydigan, mustaqil ijod qiladigan o'qituvchilar bu muammoni bartaraf etishga harakat qiladi va pedagogik mahoratlariga tayanib, darsda o'z oldiga qo'ygan vazifalarini ma'suliyat bilan uddalaydi. Birinchi variant. O'qituvchi o'quvchilarga birorta jismoniy mashqni, masalan, ikki oyoqda o'tirib turish yoki qo'lda tortilish mashqlarini bajarishni uyga vazifa tariqasida beradi. O'qituvchi ertasiga o'quvchidan mashqlarni ko'rsatishni talab qiladi. Berilgan mashqlarni o'quvchilar bir necha marotaba takrorlagandan so'ng, o'quvchilarda siqilish va zerikish holatlari paydo bo'ladi, natijada dars tartibsiz o'tadi. Ikkinci variant. O'qituvchi o'quvchilarga o'zlari sevgan harakatli o'zin yoki jismoniy mashq turlaridan birini tanlab mashq qilib kelishni tavsiya etadi. O'qituvchining bundan o'tkazgan darsi, birinchi variantga qaraganda qiziqarli o'tadi. O'quvchining o'zi

mustaqil o'rgangan har bir mashqni boshqa o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi hamda o'quvchi har bir harakatni diqqat bilan kuzatib boradi. Natijada o'quvchi har hil harakatli o'yin va mashq turlarini bo'lib oladi. O'quvchilarning o'zлari tanlagan jismoniy harakati, mashqni bajarish uslublari o'quvchi shaxsini va ichki dunyosini ochib beradi. Agar o'qituvchi jismoniy tarbiya darsida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy va sportchilarning hayoti va faoliyatini o'quvchilarga o'rgatib, ular haqida qiziqarli ma'lumotlar berib borsa, dars jarayoniy yana ham qiziqarli bo'ladi. Sportchilar o'zlarida namoyon bo'ladigan qaziqishlar, barqarorlik yoki doimiylik darajasi bilan ham bir - biridan farq qiladi. Ba'zi sportchilar bo'ladiki, ularda hosil bo'lgan muayyan qiziqish - havaslar doimiy bo'lib umrbod saqlanib qoladi. Masalan, Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, Eldor Shomurodovlar singari sportchilarda bo'lgan qiziqishlar doimiy va barqaror qiziqishlardir. Ba'zi o'quvchilar sportning biror bir turiga juda qattiq qiziqadilar, mehr qo'yadilar, lekin ularning qiziqish - havaslari uzoqqa bormaydi. Bunday o'quvchilardagi biror narsaga, biror faoliyatga bo'lgan zo'r qiziqish, o'rnini darrov boshqa bir qiziqish, havas oladi. Bunday o'quvchilarni qiziqishlari tez o'zgaradi. Ularda paydo bo'ladigan qiziqishlar nihoyatda kuchsiz bo'lib, tez o'tib ketadi. Bunday o'quvchilarda ko'pincha muayyan orzu - havaslar bo'lmaydi. Albatta, to'g'ri yo'lga qo'yilgan jismoniy mashg'ulot va sport ishlarining o'ziyoq o'quvchilarda sportga bo'lgan qiziqishni tarbiyalaydi. Har qanday jismoniy tarbiya darsi va har qanday sport musobaqasi o'quvchi uchun qiziqarlidir. O'quvchilarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni paydo qilish va uni barqaror qilish muktabdag'i jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham ko'p jihatdan bog'liq. O'quvchilarda sport ishlariga qiziqishni vujudga keltirish va uning barqarorligini saqlab qolish uchun avvalo, o'qitiladigan darslarning emotsional, yorqin va jonli bo'lishi, tashkil etilgan sport musobaqalari kelgusida kasb egallash, ma'lumotini oshirish va sog'ligini mustahkamlash uchun zarurligini o'quvchilarga anglatib borish katta ahamiyatga egadir. Qiziqishlari past yoki tartibsiz bo'lgan o'quvchilarning ma'naviy hayoti mazmunsiz va betayin bo'ladi. Bunday o'quvchilar o'zlarining nima uchun yashayotganliklarini ko'pincha bilmaydilar va hayotdan o'z o'rnini topishga harakat qilmaydi. O'quvchilardagi qiziqishlarning susayib yoki yo'qolib ketishi ularning aqlini ham pasaytirib qo'yadi faoliyatni susaytirib yuboradi va boshqa ma'naviy fazilatlariga putur yetkazadi; o'quvchini bekorchilikka moyil, yalqov qilib kўяди. Bunday o'quvchilar bo'sh qolgan vaqtlarida nima bilan mashg'ul bo'lishlarini bilmay zerikadilar yoki vaqtini o'tkazadigan biror bekorchchi ermak topishga urindilar. Muayyan sport bilan shug'ullangan o'quvchilar har doim tetik, faol bo'ladilar. Bunday o'quvchilarning harakati ma'noli va sermazmun bo'ladi. Ular doim maqsad yo'lida olg'a intiladilar. Qalban vatan hissini, ota - ona oldidagi burch va ma'suliyatlarini yaxshi anglay oladilar.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2010.
2. Tulenova X.B. Sport psixologiyasi. T., “Yurist-Mediya” 2011.
3. Елконин Р.Б., Венгер А.Л. Особенности психологического развития детей 6-7 летнего возраста. М., Педагогика 1998.
4. O’quv muassasalarida ta’lim-tarbiya dasturlari. Tuzuvchilar: T.Usmonxadjaev, F.Xo’jaev, K.Maxkamjanov va boshqalar. T. XTV. RTM, 1996

KRIMINALISTIK BALLISTIKA

Yuldashev Farrux Umirboy o‘g’li

ANNOTATSIYA

Maqolada kriminalistik ballistikada harbiy ballistika va texnikaning ayrim ta’motlaridan, hozirgi kun yutuqlarini o‘z vazifasiga moslashtirilgan holda foydalilanadi. Ballistika sohasiga otish qurollarining tuzilishi, turlari, otishdan hosil bo‘madigan o‘zgarishlar, o‘q-dorilarni (patron, o‘qgilzalarni) qaysi quroldan otilganligini tekshirish masalalari kiradi. Kriminalistik ballistika fanning boshqa sohalari, ayniqsa, trasologiya bilan cham barchas bog’liqdir. Otishdan hosil bo‘madigan o‘q va gilzalardagi izlarning vujudga kelish mexanizmini o‘rganish va tekshirish, trasologiya nazariyasining umumiy ilmiy asoslariga tayanadi. O‘q otishdan hosil bo‘ladigan turli alomat va jarohatlar inson tanasida yuz bersa, ular sud-tibbiyot tekshiruvida obyekt bo‘lib hisoblanadi, boshqa to‘siqlardagi barcha o‘zgarish, jarohatlar kriminalistik ballistika sohasiga tegishlidir.

Kalit so’zlar: Ballistika tushunchasi va tekshiruv obyektlari. O‘q-otish qurollarining turlari va qismlari. Otilgan o‘q va gilzalar asosida otish qurolini identifikatsiyalash. Otishdan qoladigan jarohatlami, otish masofasini, o‘qning yo‘nalish tomonini aniqlash. Portlovchi moddalarining tekshiruvi. Sovuq qurollaming tekshiruvi.

KIRISH

Tergov va ekspertiza amaliyotida jinoiy maqsadda ishlataladigan o‘q otish qurollaridan k o‘p hollarda kichik, kalta stvolli qo‘lda otishga mo’ljallanganlari uchrab turadi. Otish qurolining stvoli (o‘q chiqadigan yo‘li) silliq silindr shaklida bo‘lib boshlanish joyi dasta ustida bo‘lib, chiqish (uchi)dan biroz diametri jihatdan kattaroq bo‘ladi. Bu joyni ballistikada “patronnik” - o‘q bilan gilzaning birgaligini tashkil qiluvchi patronlarning joylashuv joyi ham deyiladi. Otishga tayyorlangan patron stvolning bosh tomonida joylashgan bo‘lib, harbiy holatga keltirilganda patronning gilza ustidagi kapsuli (portlovchi poroxni yondiruvchi qismi) tepki to‘g‘risiga joylashadi.

Ma’lum ot uchun! Stvolning uzun va qisqa bo‘lishi quyidagicha: uzun stvolli qurollar (uzunligi 40 sm dan ortiq bo‘lganlari) o‘rta uzunlikdagi stvollar (20 sm dan 40 sm gacha bo‘lgan) va qisqa stvolli qurollar (uzunligi 20 sm dan qisqa bo‘lganlar). U zun stvolliklarga harbiy va ov m iltiqlari, karabinlar kiradi, o‘rta stvollik qurollar qatoriga turli avtom atlar, ju m ladan, “Kalashnikov” avtom ati kiradi, qisqa stvollik qurollarga revolver (to‘pponchalar), pistoletlar va ba’zi qo‘lda yasalgan qurollar va qirqmalar (stvolni qisqartirish maqsadida kesilgan).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Qo'Mda otishga mo'ljallangan barcha quollar ikki guruhga bo'linadi: stvolning ichki tuzilish jihatidan silliq stvolli va o'ym astvolli quollari. Silliq stvolli quollarga ov miltiqlari (sochma o'q otishga moslangan), eski ishlab chiqarish to'xtatilgan shompsonlik pistoletlar va qo'lda yasalgan quollar kiradi. O'ym a stvolli quollaming xususiyati - stvolning ichki tuzilishi silliq bo'lmay stvol devorida aylanma shaklida bo'Mgan ariqchalar mavjud bo'lib, ular otilgan o'qni katta kuch bilan siqilib chiqib uzoq masofaga yetishini, aylanma shakli esa o'qning stvoldan chiqqach mo'ljalga yo'nalishini o'zgartirm asdan nishonga to'g'ri borishini ta'minlaydi. Kriminalistik identifikatsiya uchun stvol ichidagi chuqurchalar oralig'idagi maydonchalar stvoldan chiqayotgan o'qning yon qismida tirnalish, sirg'alish shaklidagi izlarni hosil qiladi. Bular qurolni identifikatsiya qilish uchun jiddiy ahamiyat kasb etadi. Chuqurchalaming soni turli quollarda turlichadir: ko'pchilik qo'lda otishga mo'ljallangan pistoletlarda, to'pponchalarda to'rtta, ba'zilarida oltita, yettita va kamdan kam quollarda uchraydigani sakkizta chuqurcha bo'ladi. Chuqurchalam ing aylanm ayo'nalishi o'ng tomonga ba'zilari chap tom onga qaratilgan bo'ladi. Chuqurchali quollar guruhiga barcha harbiy, ba'zi sport-o'quv miltiqlari va qo'lda ayrim qismlardan yig'ilgan quollar kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lum ot uchun! K alashnikov avtom ati 7,62-A K ; b a 'zilari AKM , AKS, AKSU tizim idagilari 5,45 m m.li kalibriga egadirlar. T T (Tokarev), PM (Makarov pistoletlari), APS va PSM quollari quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi: TT - T ishlangan Tokarev pistoleti-7,62 m m .li kalibrli, to'rtta o 'ng tomonga yo'llangan chuqurchali stvolga ega, (m agaziniga) sakkizta patron joylashadi va jangavor holatga keltirilishi avtomatlashgan; 1 PM - Makarov pistoleti - zaryadkasi (harbiy holati) avtom atlashgan, 9mm 1 ikalibrli, to'rtta o 'ng tomonga yo'naligan, chuq urchali stvoli bor, magazini sakkizta patron sig'diradi, tepkisi (spuskovoy kurok) ochiq va harakatchan; APS - avtom atlashirilgan Stechkin pistoleti kalibri 9mm , to'rt chuqurchali [stvol, magaziniga 20 ta patron joylash PSM - Lapasheyev, Simarin va Kulikovlar tomonidan ishlangan kichik 1 gabaritli pistolet 5,45 kalibrli to 'rt chuqurchali stvol m gziniga 8 ta patron joylashadi.

Revolver (to'pponcha) – to'la avtomatlashirilmagan stvoli to'rt chuqurchali, patronlar joylashadigan qismi aylanma, dumaloq baraban shaklida bo'lib, 7 patron kiradigan alohida (skamorasi) uyalari bor, jangavor holatga qo'l bilan keltiriladi, otish jarayonida baraban aylanib uyasidagi patron stvolga to'g'rilanadi. Silliq stvolli miltiqlar asosan ikki turda bo'ladi: dastasi bilan stvol qismi buklanad igan va buklanmaydiganlari. Buklanadigan ov miltiqlari bir otar, ikki, ayrim hollarda uch otar, (uch stvolli) bo'ladi. Ba'zida jinoyatchilar silliq stvolli miltiqlarning stvollarini kesib arralab qisqartiradilar, yashirin olib yurishga moslaydilar. Bular amaliyotda "qirqma"

deyiladi. Ulardan otilgan o‘qning tezligi ov miltig’idan birmuncha pastroq bo’ladi. Yasama qurollar birmuncha soddalashtirilgan, silliq stvolli yakka o‘q otishga mo’jallab tayyorlanadi. Bular odatda 5,6 mm kalibrli patronlarga moslashgan bo’ladi. Tashqi ko‘rinishini niqoblash maqsadida ularga turli asbob-buyum (hassaning dastasi, yozish-chizish quroli) shaklini beradilar. Bular “атипичный”, ya’ni tipik bo’lmagan otish qurollari deyiladi. Qo’lda yasalgan shompollik qurol yakka o‘q otishga moslangan bo’ladi. U nda o‘q va poroxni shom pol bilan stvolga joylashtiradilar, ba’zida ikki, uch marta otishga mo’ljallanganlari ham uchrab turadi. Ular 5,6 mm kalibrli patronlarga moslashgan bo’ladi.

Otish qurollarining ayrim qismlari patron ularda turli izlar hosil qiladi: izlar qurolni otishga hozirlashda, magazindan patron stvolga uzatilganda, tepki kapsulaga zarba berishganda porox gazining bosimi (kuchi) o‘qni stvoldan itarib chiqarganda, o‘qdan ajralgan gilza orqaga harakat qilib qaytarish qismiga urilganda qoladi. Otilgan gilzada magazin prujinalaridan, tepkidan, gilzani chiqarib tashlash ilgagidan izlar hosil bo’ladi. Otilgan o‘qda esa stvolning ichki qismidagi chuqurchalarning oraliq maydonchasidan timalish shaklida izlar hosil bo’ladi. Hozirgi kunda ishlatiladigan barcha harbiy patronlarning tarkibini gilza, kapsul, porox zaryadi va o‘q tashkil qiladi. Ov miltiqlarining patronida porox bilan sochma o‘q aralashib ketmasligi uchun ularning orasiga ajratgich (prokladka) va o‘qning ustidan nam atgacha (рыж) qoplamlari ishlatiladi.

Ma’lumot uchun! Gilzalar temir va latun metalidan tayyorlanadi, ov miltiqlari uchun qog‘oz-kartondan ham ishlanadi, pastki qismini metal, ustki devorini esa karton tashkil qiladi. Gilzaning bosh qismi o‘q joylashadigan joyi, devori va ostki qismi asosida identifikatsiya qilib, qurolning qaysi guruhga mansubligi va aynanligini aniqlash mumkin.

Hodisa joyidan topilgan o‘q va gilzani ko‘zdan kechirish natijasida ular qanday modeldagi quroldan otilganligini aniqlash mumkin. So‘ngra shubhali qurol topilgan taqdirda identifikatsiya o‘tkazilib mazkur qurolning aynanligi, ya’ni otilgan o‘q va gilza ana shu quroldan otilganmi degan masala hal etiladi. Qurolning o‘zi topilmagan hollarda o‘qning qanday patron turiga tegishli ekanligi, umumiyligi tuzilishi, shakli, og’irligi, qanday metalidan yasalganligi, gilzaga qanday uslubda biriktirilganligi va boshqalar aniqlanadi. Otilgan gilzaning ham umumiyligi shakli bosh qismi va asoslarining tuzilishi, o’lchovi (diametri va uzunligi) bosh qismining ichki o’lchovi, og’irligi, markirovka belgilari va boshqalami kuzatish bilan qanday turdagiligi quroldan otilganligi haqida fikr yuritiladi shubhalangan qurolni izlashda qidirish doirasini ancha qisqartiradi, yengillashtiradi. Silliq stvolli qurollarga mo’ljallangan sochma o‘qning ayrim donalari (drob, kartech) topilgan taqdirda ularning zavodda yoki qo’lda ishlanganligi, qanday usulda tayyorlanganligi, shakllari, og’irligi, kimyoviy tarkibini spektografik xususiyatlari aniqlanadi. Bu masala tekshirilayotgan sochma o‘qning

guruh mansubligini aniqlash bilan birga har xil joylarda topilgan bir necha o‘q donalarining bir manbaga tegishli ekanligini ham aniqlash mumkin bo’ladi. Ov miltiqlariga mo’ljallangan patronlarning qoplamasini tekshirib, patronning kalibri, qanday materialdan ishlanganligi, ishlanish uslubi va boshqalari aniqlanadi. Qoplamlar uy sharoitida qo’lda yasalganda uning materialiga (qog‘oz, karton, jun, namat) kabi o’xshash materiallar va ularning bo’laklari bir xil joylarda topilgan taqdirda trasologik tekshiruv ham o’tkazilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qurollarni identifikatsiya qilishning ilmiy asoslari qurolning iz hosil qiladigan qismlari, otilgan gilzalarning aks ettiradigan ustki tuzilishlari individuallik xususiyatiga ega ekanligidadir. Individual tashqi tuzilish xususiyati stvolning ichki tuzilishidagi chuqurcha oraliqlariga ham xos bo’lib, o‘q stvoldan chiqish jarayonida siqilib, sirg‘alib ana shu individual tashqi tuzilish (mikrore!f)ni o‘zida aks ettiradi. Patronning gilza qismida esa uni otishga hozirlash paytida, so‘ngra bevosita otish chog’da turli izlar aks etadi. Ularning urnumiyo o’lchovi, shakli birinchi navbatda qurolning qaysi guruhga mansubligini aniqlashga yordam beradi. Umumiyl belgilari bilan bir qatorda mikrore!fni ifoda etuvchi xususiy belgilar yig’indisi esa identifikatsiya o’kazishga asos bo’ladi. Otilgan o‘q va gilzalar asosida o’tkaziladigan tadqiqot hodisa joyida topilgan o‘q va gilzalarning urnumiyl belgi-xususiyatlarini o’rganishdan boshlanadi. So‘ngra ulardagi izlarni qurolning muayyan qismi bilan solishtiriladi. Ko‘p hollarda solishtirib tekshirish uchun shubhalangan quroldan eksperimental otish yoki bilan nam una o‘q va gilza olinadi. Shundan so‘ng ulardagi izlar - alomatlar o‘zaro solishtirib tekshiriladi. Eksperimental o‘q otishni maxsus tayyorlangan paxtada, suv va boshqa sun’iy to’siqlarda amalga oshiriladi. Bunda o‘qning tezlik harakati to’siqlarda susayadi va hosil bo’ladigan izlar o‘zgarmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A bdum ajidov G ‘.A., A lim ova R.A., N orboev A.N va b. Kriminalistika. Darslik. 1 - qism. - T.: Adolat, 2008.
2. A bdum ajidov G |A ., A lim ova R.A., N orboev A.N. va b. Kriminalistika. Darslik. 2 - qism. - T.: Adolat, 2008.
3. A bdum ajidov G |A ., A lim ova R.A., Zakutskiy A.S. va b. Kriminalistika. Darslik. - T.: Fan va texnalogiyalar, 2005.
4. Tulaganova G.Z. Hodisa sodir boMgan joyni ko‘zdan kechirish tergov haratini o ‘tkazishning umumiyl tartibi. Risola. - T.: TDYU, 2 0 1 6 .-6 6 bet.
5. H am idov B.H. Ayrim turdag transm illiy jinoyatlarni tergov qilish. M onografiya.// M as’ul m uharrir: y.f.n., dots. D .B .B a z a r o v a -T .: TDYU, 2016. - 149 bet

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Tuxtasinova Ruxshona

Toshkent Puchon universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, bola shaxsini individual yondashuv asosida rivojlantirish haqida so'z boradi. Shuningdek, bu variativlik metodining afzallikkлari misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: variativ metod, maktabgacha ta'lim, tarbiya, shaxs, rivojlantirish, metod va usullar.

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha sohalarida ulkan islohotlar olib borilmоqda. Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim uzlusiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bolani har tomonlama sog'lom va yetuk tarbiyalsh, maktabda o'qishga qiziqishni oshirib, olti-yetti yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bolalar 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda oladigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini o'zlashtirishi mutaxassislar tomonidan tasdiqlangan. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim ta'lim sohasidagi asosiy soha hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, chekka qishloqlarda ham yangi zamonaviy bog'chalar qurilib, qisqa vaqt ichida maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 3 barobar oshgan bo'lib, bolalarni qamrab olish 28 foizdan 54 foizga yetdi.

Hozirgi kunda yurtimizda Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Bu esa nafaqat maktabgacha ta'limga bolalar qamrovini oshmoqda, balki ta'lim sifatiniga ham katta ahamiyat qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi keng qamrovli sohalardan biri bo'lib bolalarga ta'lim berish bilan bir qatorda ularning umumiyo ko'nikmalarini rivojlantirish, sog'lom ovqatlanish, spot mashg'ulotlari, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, musiqiy faoliyatlar, bolalarning psixologik holatlari, maktabga tayyorlash kabi maqasadlarni o'z oldiga qo'yadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga bilimlarni variativ yondashuv asosida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi sharoitlarni yaxshilash, bolalarni har tomonlama: aqli, jismoniy, ma'nnaviy rivojlanishlariga yordam berish muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Har bir bolaga individual yondashgan holda kuchli va kuchsiz tomonlari, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib variativ metodlar ishlab chiqiladi. Har bir bolaga uning psixologik qobiliyati, jismoniy holati, talab va ehtiyojlarini xisobga olgan holda individual yondashadi. Bu jarayonda ota-onalarni ham jalb etish muhim ahamiyatga

ega bo'lib bu pedagogdan katta mahorat talab qiladi. Shuning uchun ham pedagok bir qolibga tushib qolmasdan, tinimsiz o'z ustida ishlashi, o'rganishi va tajriba oshirishi muhim. Bolalarni o'qitish jarayoni nafaqat ta'limga beruvchi, balki bolalar uchun qiziqarli bo'lishi, ularning individual xusiyatlarini inobatga olgan holda moslashuvchan variativ metodlardan foydala olish muhim hisoblanadi.

Biz bilamizki, maktabgacha ta'limga uzliksiz ta'limga boshlang'ich va muhim qismi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limga bolalarni har tomonlama barkamol, yetuk, sog'lom, bilimga chanqoq, mustaqil shaxs bo'lib yetishishlarining poydevoridir. Bolaning shaxsiy qobiliyatlarini ochib berish, uni to'g'ri yo'naltirish, qibiliyatlarini topishda ko'maklashish va to'g'ri yondashish maktabgacha ta'limga davrining asosiy vazifalaridan biri.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limga vazirligi tomonidan katta maktabgacha yoshdagagi bolalarni rivojlantirish, ularga ta'limga bilan bir qatorda tarbiya berish va maktabga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilgan "Ilm yo'li" variativ dasturi ishlab chiqildi. "Ilm yo'li" dasturi maktabgacha ta'limga tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, O'zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur", maktabgacha ta'limga rivojlantirish Konsepsiysi asosida ishlab chiqilgan.

"Ilm yo'li" variativ dasturi bolani har tomonlama komil imson bo'lib yetishishlari, ularni o'qitish bilan bir qatorda, tarbiyasi va maktabga tayyorlashda xalqaro tajribalardan foydalangan holda ishlab chiqilgan hujjat hisoblanadi. Bu dasturga ko'ra o'quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soatni o'z ichiga olib, 80 foizni majburiy qismi, 20 foizni variative qismdan tashkil topgan.

"Ilm yo'li" variative dasturi moslashuvchan bo'lib, maktabgacha ta'limga tashkiloti hududiy, iqtisodiy, milliy va boshqa sharoitlardan kelib chiqib, o'z uslublarida ishlab chiqishlari mumkin.

Variativ dastur bir necha asosiy sohalarni o'z ichiga olib, bolaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bular:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- ijtioiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

Dastur bolalalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, har tomonlama rivojlantirish, majburiy boshlangich ta'limga tayyorlash, 6-7 yoshli oilaviy sharoitiga ko'ra maktabgacha talimga jalb etilmagan bolalarni majburiy boshlangich ta'limga tayyorlovchi, bir yillik tayyorlov guruhlari tashkil etilgan bo'lib bepul bilim olishlari

va maktabga psixologik jixatdan tayyor bo'lishlari kabi maqsad va vazifalarini o'z ichiga oladi.

Variativ dastur asosida maktabgacha ta'lif jarayonini tashkil etishda tarbiyachining roli va o'rni muhim. Maktabgacha ta'lif tashkilotida ishslash tarbiyachidan pedagogik mahorat, bolalar psixologiyasini tushunish, sohaga oid yangiliklardan xabardor bo'lishi va ijodkorlikni talab qiladi.

«Ilm yo'li» variativ dasturida pedagog har bir bolaning ichki imkoniyatlarini, jismoniy holatini, ruhiy holatini va shu kabi individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etishi lozim. Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida bolalarni kuzatishi, tahlil qilishi va kerakli xulosalarni chiqara olishi kerak. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Ta'lif berish jarayonini o'yin bilan mujassam holda mashg'ulotlarni olib borish yaxshi natijalarni beradi. O'yin faoliyati bolalar uchun ham qiziqarli bo'lib, bolalar faol ishtirok etadilar. Bolalar turli o'yinlar orqali atrof-muhit haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar, jismoniy faoliyatda bo'ladilar, do'stlari bilan ijtimoiy munosabatga kirishadilar va shu orqali so'z boyliklari oshadi. O'yin davrida esa tarbiyachi bolalarning xususiyatlarni monitoring qilib borishlari, ta'lif jarayonida individual yondoshishlariga yordam beradi. Bolalarning qiziqishlari, xohishlari, qobiliyatlariva ehtiyojlari o'yin jarayonida rivojlanadi. O'yin jarayoni bolalarning psixik holatini namoyon etadigan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. SHuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti – harakatlari va xulqatvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha 4 sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiyligi, ijodiy tarzda namoyon bo'ldi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q. Mashg'ulotlar davomida jismonan yoki ruhan rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar bilan, tarbiyachi ta'lif berish jarayonida individual xususiyatlariga e'tibor qaratgan holda o'z faoliyatini olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Н.Ш. Variative orientation-as a part of the socio-pedagogical system of teaching upbringing// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 5 2019 Page 15-17.
2. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив модели-мактабгача таълим тизими истиқболини белгиловчи асосий омил// ТДПУ “Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инноватсия ва истиқболлар” Халқаро илмий конференция. Тошкент 2018.
3. Содиқова Ш.А. “Мактабгача педагогика”, Дарслиқ, Тошкент 2017.
4. Ахмедова Х., Раҳимова Д. Болага йўналтирилган таълим дастурини ташкил этиш. Тошкент, 2012.

HOZIRGI VAQTDA AXBOROT-TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLARNING YANGI USULLARI

Sharipov Asilbek Dilmurod o'g'li

O'zbekiston respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizda axborot-texnologiyalari sohasida sodir etilayotgan jinoyatlarning yangi usullari, ularni kvallifikatsiya qilish sohasidagi ayrim dolzARB masalalar, sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning umumi statistikasi, hamda ularni oldini olishga qaratilgan profilaktik tavsiyaviy chora-tadbirlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Fishing, kibermakon, shaxsga oid ma'lumotlar, Nigeriyalik xati, Scam-419, Webmoney, kriptovalyuta.

ANNOTATION

This article illustrates new methods of crimes committed in the field of information technologies in our country today, some urgent issues in the field of their qualification, and preventive and recommended measures aimed at preventing them.

Keywords: Phishing, cyberspace, personal information, scam-419, webmoney, Nigerian letters, cryptocurrency

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о новых способах совершения преступлений в сфере информационных технологий в нашей стране сегодня, некоторых актуальных вопросах в области их квалификации, а также профилактических и рекомендуемых мерах, направленных на их предотвращение

Ключевые слова: Фишинг, Киберпространство, Персональная информация, Нигерийское письмо, Scam-419, Webmoney, Криптовалюта

Hech qaysimizga sir emaski, XXI asr axborot-texnologiyalari asri , shunday bo'lishi bilan bir qatorda ushbu sohada sodir etilayotgan jinoyatlarning paydo bo'lish va to'xtovsiz yangi bosqichga ko'tarilib borish asri ham hisoblanadi. Ayniqsa sodir etilayotgan bu turdagи jinoyatlarni fosh etish, aniqlash ham shunga yarasha kasb, malaka qolaversa bilimlar sohasini doimiy ravishda kengaytirib borishni taqozo etadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning ayrim turlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. virusli dasturiy ta'minotni tarqatish;
2. foydalanuvchining maxfiy ma'lumotlarini o'g'irlash;
3. boshqa odamlarning intellektual faoliyat mahsulotlarini o'g'irlash;
4. ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning akkauntlarini buzish;

5. yolg'on ma'lumot tarqatish, tuhmat qilish;
6. millatlararo nizo yoki dinlararo adovatni qo'zg'atish.
7. bank plastik kartalari (karta rekvizitlari) bilan noqonuniy operatsiyalar;
8. qimmatli qog'ozlar bozoridagi Internet-firibgarlik;
9. Internetdagi moliyaviy piramidalar;
10. mobil aloqa bilan bog'liq jinoyatlar;
11. elektron tijorat sohasidagi boshqa jinoyatlar.

Ushbu turdagи jinoyatlar kibermakonda axborot-texnologik vositalar yordamida sodir etiladi. **Kibermakon**¹ — axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit hisoblanadi. **kiberjinoyatchilik** esa axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra 2022-yil yurtimizda o'g'irlik jinoyati **15237** ta firibgarlik jinoyati esa **20591** ta sodir etilgan bo'lib ularning har to'rtdan biri axborot-texnologiyalari sohasida sodir etilgan. Bundan tashqari birgina 2022-yilning o'zida mutaxassislar kiberjinoyatlardan etkazilgan zararni 3 trillion dollarga baholashgan.

O'zbekiston hududida 2023-yilda quyidagi usullarda kiberjinoyatlar sodir etilmoqda:

1. Kiberfiribgarlar sizga o'zini bank xavfsizlik xizmati xodimi deb tanishtiradi hamda sizning kartangizga onlayn kredit rasmiylashtirilayotgani yoki sizning mavjud bank hisob raqamingizga texnik vositalar orqali begona shaxs kirmoqchi bo'layotganini vaj qilishib sizdan karta ma'lumotlarizngiz hamda ushu kartadagi pul mablag'larini boshqarishga bo'lga huquqni qo'lga kiritishadi. Ushbu usulning ijtimoiy xavfi shundaki, agar sizning bank kartangizda mablag' bo'lmasa ham keyinchalik firibgarlar sizning kartangizdan "DROP" sifatida foydalanishadi, yani boshqa jabrlanuvchilardan o'g'irlangan mablag'larni sizning kartangizga otkazishadi hamda jinoyat izlarini yoqotish uchun sizning kartangizdan pul mablag'larini kriptovalyuta birjasiga o'tkazishib u yerdan kriptovalyuta sotib olishadi. So'ngra kriptovalyutalarni sotishib o'g'irlangan pul mablag'larini o'zlarinikiga aylantirib olishadi. Siz esa umuman xabaringiz yoq jarayonlar uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirtirilasiz. Bu esa keyinchalik siz uchun ko'plab ovoragarchiliklar keltirib chiqaradi.

2. Olx.uz, Online savdo, E-auksion kabi shunga o'xshash platformalarda firibgarlar boshqa shaxslar tomonidan sotuvga qo'yilgan e'lolar, rasmlar, ularning ma'lumotlari-ism-familiyasi, telefon raqamidan jinoyat qilish maqsadida

¹ 2022-yil 15-aprelda qabulqilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi

foydalanishadi. Ya’ni ularning ma’lumotlarini ko’chirib olishib o’zlarining shaxsiy sahifalariga joylashtirishadi. Qisqacha qilib aytganda baliq tutish (fishing) uchun **qarmoq** tashlab qo’yishadi. Siz ushbu soxta sotuvga qo’ylgan mahsulotni xarid qilish maqsadida u bilan aloqaga chiqqaningizdan boshlab siz uning qarmog’iga ilina boshlagan o’ljalardan biriga aylanasziz. Shunda firibgar sizga ushbu sotib olmoqchi bo’lgan mahsulotingiz uchun siz uni band qilib qo’yishingiz lozimligi aks holda esa uni boshqa xaridorga sotib yuborishini bildirib sizni ishonchingizga kirishadi. Ko’pincha firibgarlar soxta mahsulotlarni odamlarni o’ziga jalb etish uchun odatdagidan ancha pastroq narxlarda joylashtirishadi. So’ng esa to’lovni amalga oshirish uchun sizdan kelgan kodni so’rashadi yoki sizga soxta havola yuborishadi va kartangizda operatsiyalar amalga oshirishga bo’lgan huquqni qo’lga kiritshadi. Bu usulning xavflilik jihat shundaki, nafaqat mol mulk talon-taroj qilinadi, balki shaxsga oid malumotlar to’g’risidagi qonunchilik ham buziladi. **Shaxsga doir ma’lumotlar¹** deganda muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo’lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog’ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot tushuniladi.

Yuqorida holatda esa tezkor xodimlar umuman jinoyatga aloqasi bo’lman, haqiqatdan mavjud mol-mulkini sotish maqsadida ijtimoiy tarmoqqa joylashtirgan shaxslarni chaqirishga majbur bo’lishadi. Chunki firibgarlar ushbu shaxslar tomonidan joylashtirilgan ma’lumotlardan foydalanishadi.


3. Yurtimizda eng keng tarqalgan kiberjinoyatlarning sodir etilish usullaridan yana biri bu sizga ko’p miqdorda meros qoldi deb sizga smslar yoki ijtimoiy tarmoqdan har xil xabarlar keladi va sizga haqiqatdan sizning ma’lumotlaringiz aks etgan soxta meros hujjatlarining rasmini yuborishadi. Ushbu holatga birinchi marta duch kelgan odam unga meros qolishi mumkin bo’lgan pul summasini ko’rib hayratga tushadi. Firibgarlar sizdan mablag’larni O’zbekistonga yuborish uchun soliq so’rashayotganini vaj qilishib sizdan pul undirmoqchi bo’lishadi hamda sizga hisob raqamini tashlashadi. Bu turdagи kiberjinoyat turi Scam-419 yoki “Nigeriyalik xati” deb nomlanadi. Afsuski amaliyatda hattoki katta miqdorda pul mablag’larini firibgarlarga o’z xoshishi bilan o’tkazib berayotganlar kam emas. Bu usulning ijtimoiy xavfli jihat shundaki, jinoyatni ochish o’ta murakkab chunki firibgar O’zbekiston hudida emas, qolaversa uning ma’lumotlarini yig’ish ham qiyin.

4. Firibgarlar to’lov operatorlari nomidan qo’ng’iroq qilib, tizimda qandaydir xatolik yuz bergenini yoki tizim yangilangani sabab unga raqamni qayta ulab qo’yishni ro’kach qilishadi. Agar raqamni ulash uchun kodni berishmasa foydalanuvchilar

¹ 2019-yil qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining 547-sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida”gi qonuning 4-moddasi

tarmoqdan uzib qo‘yilishlari, pul o‘tkazish/yechish amaliyotlarini bajara olmasliklarini hamda bloklanib qolishlarini aytib, bosim o‘tkazishadi. Yana bir ahamiyatli jihat, ular rus tilida muloqot qilishadi, bu esa ularning chindan ham to‘lov tashkilotlarining operatorlari ekanligiga ishonchni oshiradi. Agar ulardan o‘zbek tilida muloqot qilishlarini so‘rashsa, ular telefonni yopib qo‘yishadi. Kompaniya operatorining qayd etishicha, aholining ayrim qismi rus tilida yaxshi muloqot olib bora olmasliklari sabab firibgarlar aholi bilan aynan shu tilda gaplashishadi. Bu esa ularga yanada ta’sir o‘tkazishga sabab bo‘ladi

5.Ko’pincha fuqarolar, ayniqsa o’smir yoshlar har xil turdag'i behayo saytlarga kirishganda quyidagi sahifa chiqib qoladi:



So‘nggi paytlarda fuqarolarimiz tomonidan pornografik foto va video mahsulotlarni targ‘ib qiluvchi internet resurslaridan foydalanish jarayonida boshqa shu kabi resurslarga avtomatik tarzda o‘tib ketish orqali «O‘zbekiston Respublikasi IIV Kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo‘limidan bildirishnomasi» sarlavhasi ostida sizib chiquvchi oynada foydalanuvchining taqiqlangan saytlarga kirgani sababli go‘yoki IIV tomonidan u 200 000 so‘m (ayrim hollarda 300 000 so‘m) miqdorida jarimaga tortilgani va «Webmoney» elektron to‘lov tizimi orqali davlat hisobiga to‘lovni amalga oshirilishi lozimligi, aks holda qurilmada saqlangan kontaktlarga foydalanuvchining pornografik foto va video mahsulotlar joylashtirilgan internet resurslaridan foydalangani haqida hodisa bayoni hamda foydalanuvchiga jarimani to‘lashi talabi bilan SMS-xabar yuborilishi haqida ma’lumot paydo bo‘lmoqda. Shu bilan birga, foydalanuvchilarning internet veb brauzeri blokirovka holatiga tushib qolmoqda. E’tibor beradigan bo‘lsak ushbu sahifa havolasi hech qanaqa himoya

tizimiga ega emas qolaversa pornosaytlarga tashrif buyurganlik uchun qonunchilikda hech qanaqa javobgarlik belgilanmagan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tarkibida «Kiberjinoyatlarga qarshi kurash bo'limi» nomi bilan faoliyat yurituvchi bo'lim yoki bo'linma mavjud emas ammo Kiberxavfsizlik markazi mavjud, «Webmoney» to'lov tizimida O'zbekiston Respublikasi IIV tarkibiy va hududiy tuzilmalari elektron hamyonlariga ega emas.Bu tuzoqqa ko'pincha o'smirlar tushib qolmoqda.Ular ota-onalariga jarima kelishidan qo'rqishib yashirincha firibgarlar hisobiga so'ralgan pul mablag'larini o'tkazib berishmoqda.

Axborot-texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish qanchalik murakkab bo'lsa uni tergov qilish ham shunchalik bilim,malakani talab etadi,ayniqsa kvallifikatsiya qilish bilan bo'g'liq bir qator muammolarga duch kelish mumkin.

Axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish (JK 168-moddasi uchinchi qismi "g" bandi) deganda, moliya, bank muassasalari, fondlar va sh.k. larda bo'lgan mulkni aldov yo'li bilan kompyuter texnikasi vositalari, aloqa vositasi, planshet yoki boshqa shu kabi texnik qurilmalar yordamida manipulatsiya qilish orqali amalga oshiriladigan talon-toroj tushuniladi². Bunday firibgarlik kompyuter tizimida ishlov beriladigan, tegishli axborot tashuvchilarda saqlanadigan yoki ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari bo'yicha beriladigan axborotni o'zgartirish yo'li bilan ham, kompyuter tizimiga yolg'on axborot kiritish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin.

Axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik jinoyatini qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib sodir etilgan o'g'irlik jinoyatidan farqlashda shuni nazarda tutish lozimki, firibgarlikda jabrlanuvchi aldov yoki ishonchi suiiste'mol qilinishi oqibatida mulkini yoki unga bo'lgan huquqni axborot texnologiyalaridan foydalanib aybdor egaligiga ixtiyoriy ravishda o'tkazadi, bunda mulk o'z egaligidan chiqib ketayotganligini jabrlanuvchi anglagan bo'lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki agar jabrlanuvchining o'zi mablag'ni tashlab bersa u holda ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat kodeksi 168-moddasi 3-qismi "g" bandi bilan agar jinoyatchining o'zi jabrlanuvchining hisob raqamini boshqarish huquqini qo'lga kiritib yechib olsa jinoyat kodeksi 169-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan jinoiy javobgarlik vujudga keladi.Ammo shunga e'tibor berish kerakki agar talon-taroj qilingan mol-mulk qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 500 barobaridan ortiq bo'lsa u holda qilmish yuqoridagi holatda emas balki balki 168 chi hamda 169-moddaning 4-qismi "a"bandi bilan kvallifikatsiya

² 2023-yil 23-iyunda qabul qilingan firibgarlikka oid Oliy Sud plenum qarorining 22-bandni.

qilinadi. Asos esa jinoyat kodeksining 33-moddasi 2-qismi ya’ni agar shaxs sodir etgan qilmishda ushbu Kodeks Maxsus qismi ayni bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan jinoyatlarning alomatlari mavjud bo‘lsa, u moddaning og‘irroq jazo belgilangan qismi bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Yuqoridagi holatlar ro‘y bermasligi uchun shaxslardan e’tiborliroq bo’lishlari qolaversa, e’lonlardagi har qanday aksiyalar, pul yutuqlari hamda boshqa takliflarni tashkilotlarning rasmiy veb-sahifasidan qayta tekshirishi,saytning rasmiyligiga ishonch hosil qilmasdan ularga o‘z shaxsiy ma’lumotlarni kiritmasligi,ijtimoiy tarmoq hamda messenjerlarda tarqatilayotgan, aksiya va yutuqli lotereya o‘yinlari to‘g‘risidagi reklamalar keltirilgan havolalarni tekshirmasdan oldin ochmasligi,rasmiy emas havolalarni boshqalarga tarqatmasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT KODEksi. 22.09.1994
2. . O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT-PROTSESSUAL KODEksi .22.09.1994
3. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
KIBERXAVFSIZLIK TO‘G‘RISIDA.O'RQ-764-сон 15.04.2022
4. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
SHAXSGA DOIR MA’LUMOTLAR TO‘G‘RISIDA.O'RQ-547-сон 02.07.2019
5. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI PLENUMINING
QARORI FIRIBGARLIKKA OID ISHLAR BO‘YICHA SUD AMALIYOTI
TO‘G‘RISIDA. 17-сон 23.06.2023.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ МАЬМУРИЙ НАЗОРАТ ОСТИДАГИ ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИ

Ўқтамбоев Жасурбек Боходир ўғли

Ўзбекистон республикаси ИИБ академияси курсанти

Мингбулоқ тумани ИИБ ТБ сурошиштирувчиси капитан

Миртойев Ворисбек Абдулпатаевич

Аннотация

Битириув малакавий ишида тадқиқот мавзусининг долзарблиги, профилактика инспекторининг маъмурий назорат ўрнатилган шахсар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этилишини олдини олиш фаолиятининг мазмунни, аҳамияти, ўзига хос хусусиятлари, ташкилий ва ҳуқуқий асослари, мавжуд муаммо ва камчиликлар, уларни бартараф этишнинг усул ва шакллари, ушбу йўналишда хорижий давлатларнинг иш тажрибаси хамда уларнинг миллий қонунчилигимиздан фарқли ва ўхшаш томонлари ёритиб ўтилган.

Annotation

The relevance of the subject of research in this graduation work, the scientifical and theoretical bases of the administrative supervision of the preventive maintenance inspector, the methodological bases of the administrative supervision of the preventive maintenance inspector. In addition a practitioner review of the norms regulating the activities of the The prophylactic inspector has a clear understanding of the different international experience of other countries and different aspects of our national legislation, as well as the aspects of improving these activities using the abovementioned facts.

Ўзбекистон Республикаси қонунларини бузган ва уларга амал қилишни истамаган ҳуқуқбузарлар, уларни бузишга кўпроқ мойил бўлган шахслар, шу жумладан маъмурий назоратда турувчи илгари судланган шахслар орасида ҳуқуқий тарбияни яхшилаш борасида самарали профилактик чора-тадбирларни амалга ошириш давр талабидир.

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига тўхталадиган бўлсак, бунда бир қанча нормалар белгилаб ўтилган бўлиб, Конституциянинг иккинчи бўлим, 18-моддасида шундай дейилган: “Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши. Эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқейидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар”¹

Ушбу қоидалардан келиб чиқиб, маъмурий назорат ўрнатилган шахслар билан ишлиш жараёнида ҳам уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини поймол қилиш мумкин эмас.

Профилактика инспекторларининг маъмурий назорат ўрнатилган шахслар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этилишини олдини олиш фаолияти турли қонун ва қонун ости хужжатлари билан тартибга солинади, жумладан, жазони

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т., 2023й.

ўтаб қайтган, судланиш алматига кўра маъмурий назорат қонуни таъсири остига тушувчи шахсларга нисбатан келгусида улар томонидан такрор жиноятлар содир этишини олдини олиш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг «Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айrim тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат тўғрисида»ги 2019 йил 2 апрелдаги қонунида белгиланган тартибда суд томонидан маъмурий назорат ўрнатилади².

Жазони ижро этиш жойларидан бўшаб чикқан шахсларга нисбатан ўрнатиладиган маъмурий назорат ички ишлар органларининг фаолиятида ўз аҳамияти ва ҳажмига кўра муҳим аҳамият касб этиб, ўзида тезкор-қидирув, якка тартибдаги профилактик ва тарбиявий ишларнинг қўлланишини мужассамлаштиради.

Илгари судланганлар тоифасига кирувчи маъмурий назорат ўрнатилган шахсларга ҳам ички ишлар органлари томонидан доимий назорат юритилиши ва уларнинг турмуш тарзини текшириб турилишини тақозо этади. Чунки бу шахсларнинг жиноий фаоллиги юқори бўлиб, улар иштирокида оғир ва ўта оғир жиноятлар содир этилиши мумкин.

Маъмурий назорат ўзига хос хусусиятларга эга бўлиб, *биринчидан*, қонунда кўрсатилган қатъий маълум бир тоифадаги шахсларга нисбатан ўрнатилади, *иккинчидан*, маълум бир тоифадаги шахсларнинг муайян ҳукуқларини белгиланган муддатга чеклайди, *учинчидан*, маъмурий назорат қатъий белгиланган процессуал нормалар асосида ўрнатилади.

Маъмурий назорат – жазони ижро этиш муассасаларидан бўшаб чикқан шахслар орасида ички ишлар органлари томонидан олиб бориладиган тарбиявий олдини олиш таъсир чоралари бўлиб, назорат остидагиларга қонунда кўзда тутилган чеклашларни қўллашдан иборат.

Маъмурий назоратнинг асосий мақсади – илгари судланганлар томонидан такроран жиноятлар содир этилишининг олдини олиш ва уларнинг ижтиомий йўлга кириб олишини шакллантиришдан иборат. Айни вақтда маъмурий назоратнинг ўрнатилиши ва амалга оширилиши назорат остида бўлган шахснинг ҳукуқлари ва қонуний манфаатларига путур етказмаслиги, унинг инсоний қадр-қимматини камситмаслиги, ўқиш, иш ва истиқомат қиласиган жойида обрўсими тўқмаслиги лозим.

Жамиятнинг маънавий қиёфаси бевосита қонун устуворлигига боғлиқ. Конунга бўйсуниб яшашни турмуш тарзига айлантирмас эканмиз, жиноятчиликнинг олдини олиш муаммо бўлиб қолаверади .

Маъмурий назорат ўрнатишнинг тартиби юқорида келтирилган қонун ва унинг асосида ишлаб чиқилган Ички ишлар вазирлигининг маъмурий назоратни амалга ошириш тартибини белгилаб берувчи норматив-ҳукуқий ҳужжатига мувофиқ қўйидаги икки ҳолатда ўрнатилади:

² Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги «Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айrim тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорати тўғрисида»ги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

- 1) жазони ижро этиш муассасалари тақдимномасига асосан ўрнатиладиган маъмурий назорат;
- 2) туман (шаҳар) ИИБ бошлигининг ташаббуси билан ўрнатиладиган маъмурий назорат.

Жазони ижро этиш муассасаларида маъмурий назорат тўғрисидаги қонун таъсири остига тушувчи маҳкумларнинг озод этилишига уч ой қолганда рўйхат тузилади. Бу рўйхат туркум бошликлари, тартибот бўлимларининг озод этилаётган маҳкумни иш ва яшаш жойи билан таъминлаш масалалари бўйича нозирига топширилади. Туркум бошликлари рўйхат олингандан кейин беш кун ичida уч нусхада маҳкумнинг хулқ-атвори ҳақида тавсифнома тайёрлаб, уни муассаса бошлиғига тасдиқлатиб, тартибот бўлимига топширадилар. Тартибот бўлими назорат ўрнатиш ҳақида бошқа хужжатлар ва тавсифномани маҳкум озод этишига бир ой қолганда муассаса маъмурий комиссиясига кўриб чиқиш учун тақдим этади. Комиссия жазодан озод қилинаётган шахсга назорат ўрнатиш ёки ўрнатмаслик ҳақида қарор чиқаради. Агарда маҳкумга нисбатан назорат ўрнатиш ҳақида қарор чиқарилса, тартибот бўлими ушбу қарор нусхаси, тавсифнома, тўпланган бошқа хужжатларни илова қилган ҳолда жазони ижро этиш муассасаси бошлиғи номидан тақдимнома тайёрлаб уни ҳудудий туман (шаҳар) судига жўнатади.

Маъмурий назорат ўрнатиш тўғрисидаги масала судья томонидан тақдимнома олинган пайтдан бошлаб ўн қундан кечикмай ҳал қилинади ва маъмурий назорат ўрнатиш тўғрисидаги қарорда назорат белгилашга нималар сабаб бўлганлиги, назорат муддати, назорат остидаги шахсга нисбатан қўлланиладиган чеклашлар, агар маъмурий назорат шахсни жазони ижро этиш муассасаларидан бўшатишда белгиланаётган бўлса, унинг танлаган яшаш жойига етиб келиш муддати кўрсатилади³.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев ҳам илк 4 декабрь куни Президент этиб тайинланганларида биринчи Президентимиз Ислом Каримов олиб борган ислоҳотларни давом эттириш мақсадида, ҳалқ манфаатлари йўлида, уларнинг дарду-ғами, фуқароларнинг хуқуқлари, эркинликлари ва қонуний мафаатлари амалга оширишда жамиятнинг барча жабхаларида бир қатор ислоҳотлар олиб борилди.

Бунда фуқаролар, давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотлари, муассасалар ходимларида қонунга сўзсиз итоат этиш, уни хурмат қилиш талаб этилади. Давлат бошқарувнинг асосий белгиларидан бири – мақсади, вазифалари ва функцияларининг хуқуқий тартибга солинганлиги. Хуқуқий нормалар хуқуқбузарликлар профилактикаси субъекти ва объектининг хуқуқий ҳолати, функцияларини мустаҳкамлайди, ушбу тизимда ҳар бир иштирокчисининг масъулиятини оширади. Профилактика инспекторининг илгари судланган шахслар ўртасидаги хуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти ҳам ҳозирги кунда муайян хуқуқий асосларига эга. Мазкур норматив-

³ Ички ишлар органларининг профилактика хизмати фаолияти: Дарслик / И. Исмаилов, М.З. Зиёдуллаев, Ж.С.Мухторов ва бошқ. Масъул мухаррир Ш.Т. Икрамов. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 636 б.

хуқуқий ҳужжатларни уларнинг юридик кучига кўра қонунлар ва қонуности норматив-хуқуқий ҳужжатларига ажратиш мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг “Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонунда хуқуқбузарликларнинг умумий, маҳсус, якка тартибдаги ва виктимологик профилактикасининг турлари ҳамда уларнинг чора тадбирлари кўрсатилган. Шуни алоҳида такидлаб ўтиш жоизки, маъмурий назоратда турган шахслар билан асосан якка тартибдаги профилактика, айrim ҳолатларда эса маҳсус профилактик чора-тадбирлар амалга оширилади.

Мазкур масаланинг ижобий ҳал қилинишида хуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикасиغا доир энг мақбул чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга оширилишини самарали ташкил этиш муҳим ўрин тутади.

Қонунда хуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикасининг қўйидаги чора-тадбирлари белгиланган:

- профилактика сұхбати;
- расмий огоҳлантириш;

–хуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон бераётган шарт-шароитлар тўғрисида хабардор қилиш;

- ижтимоий реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш;
- профилактик ҳисобга олиш;
- мажбурий даволанишга юбориш;

–маъмурий назорат ва қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа профилактик чора-тадбирлар орқали амалга оширилади⁴.

Профилактика сұхбати – шахсни жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларига риоя этишга ишонтириш, ғайриижтимоий хулқатворнинг ижтимоий ва хуқуқий оқибатларини ҳамда хуқуқбузарлик содир этганлик учун қонунда белгиланган жавобгарликни тушунтириш мақсадида ғайриижтимоий хулқ-атворга эга, хуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган, хуқуқбузарлик содир этган ҳамда профилактик ҳисобга олинган шахсларга нисбатан амалга оширилади.

Профилактика сұхбатини жамоат тартибини сақлаш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш, йўл ҳаракати ва ёнгин хавфсизлиги, паспорт-виза, назоратлицензия, мулк ва обьектларни қўриқлаш қоидаларига риоя қилиш устидан бевосита текширув ва назоратни амалга оширувчи ҳамда унда иштирок этишга жалб этилган ички ишлар органининг масъул вакили, шу жумладан профилактика (катта) инспектори амалга оширади.

Профилактика сұхбатини амалга ошириш жараёнида профилактика (катта) инспектори «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги қонун»нинг «Хуқуқбузарликлар профилактикасининг асосий принциплари» номли 5-моддаси «ишонтириш усулининг устуворлиги» принципига қатъий риоя қилиши шарт.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдани қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

Профилактика сұхбати ички ишлар органларида, милиция таянч пунктларида, шунингдек шахснинг яшаш, үқиши, иш жойида ёхуд бевосита ғайриижтимоий хулқ-атвор ёки ҳуқуқбузарлик аниқланган жойда үтказилади⁵.

Профилактика сұхбатини амалга оширган профилактика (катта) инспектори бу ҳақда ички ишлар органлари милиция таянч пунктларида юритиладиган «Профилактика сұхбатини қайд этиш» китобига қайд этади ҳамда келгусида жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларига риоя этмаслик ҳолатларини давом эттирмаслик, акс ҳолда қонунда белгиланган маъмурий жавобгарлик келиб чиқиши мумкинлигини тушунтиради.

Шахс ўзининг ғайриижтимоий хулқ-атворини ёки содир этган ҳуқуқбузарлигининг моҳиятини англаң етса ва пушаймон бўлса, ходим профилактик сұхбат билан чегараланади. Аксинча, шахс ўзининг ғайриижтимоий хулқ-атворини ёки ҳуқуқбузарлик содир этишининг моҳиятини англаң етмаса ва пушаймон бўлмаса, у ҳолда шахсга нисбатан расмий огоҳлантириш қўлланилади.

Шахс расмий огоҳлантириш бланкасига имзо қўйишдан бош тортган ҳолларда ходим расмий огоҳлантириш бланкасига бу ҳақда ёзиб қўяди.

Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси니 бевосита амалга оширувчи соҳавий хизматлар ходимлари том⁶онидан эълон қилинган расмий огоҳлантиришлар, ушбу соҳавий хизматларда жамланиб, жамланган маълумотларни тегишли таҳлилларни амалга ошириш учун ҳар ойнинг охирида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлимларига тақдим этиб борилади⁷.

Шахс расмий огоҳлантирилганидан сўнг уч кун муддат ичida расмий огоҳлантиришини амалга оширган масъул мансабдор шахс, расмий огоҳлантирилган шахс ҳақида унинг иши (ўқиши) жойидаги иши берувчини (маъмуриятни) ёки яшаши жойидаги фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариши органини қўйидаги ҳолларда хабардор қилиши мумкин:

шахс ғайриижтимоий хулқ-атвортага эга эканлигини англаң етмаган ва қилган

ишидан пушаймон бўлмаган ҳолларда; шахснинг ғайриижтимоий хулқ-атвori унинг иши (ўқиши) жойидаги жамоага, шунингдек яшаб турган жойидаги маҳалла фуқароларининг тинчлиги ва хавфсизлигига таҳдид солиши ёки тарбияси ва рухиятига салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган ҳолларда; шахсда ғайриижтимоий хулқ-атвортагнинг ёки ҳуқуқбузарлик содир этишига мойилликнинг шаклланишига туртки берган омил ёхуд шахснинг ҳуқуқбузарлик содир этишига имкон берган шарт-шароит бевосита унинг иши (ўқиши) жойидаги жамоа ёки яшаш жойидаги фуқароларнинг муносабати ёхуд

⁵ Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

⁷ Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ҳаракатсизлиги (бефарқлиги, лоқайдлиги) билан боғлиқ бўлган ҳолларда.

Ички ишлар органлари шахснинг расмий огоҳлантирилганлиги ёки ғайриижтимоий хулқ-авторнинг ҳолати, шунингдек унга имкон берадиган сабаблар ва шарт-шароитлар ҳамда уларни бартараф этиш ҳақида юборган хабарномасига ўз муносабатини билдирамаган ва бир ойлик муддатда жавоб бермаган корхона, муассаса, ташкилот, шунингдек фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига нисбатан қонун доирасида чора кўрилишини таъминлайди.

Эътиборли томони шундаки, Ўзбекистон Республикасининг «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонунининг 32-моддасида келтирилган хуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон берадиган шартшароитлар тўғрисида хабардор қилиш 23-моддадаги хуқуқбузарликларнинг содир этилиши сабаблари ва уларга имкон берадиган шарт-шароитларни бартараф этиш тўғрисида тақдимнома киритишдан мазмунан фарқ қиласи.

Сабаби ушбу ҳолатда содир этилган хуқуқбузарликлар сабаби ва шартшароитлари бевосита ғайриижтимоий хулқ-авторли шахс, хуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган, хуқуқбузарликлар содир этган шахснинг ўқиши, иш ёки яшаш жойидан биридаги муҳитга тўғридан-тўғри (бевосита) алоқадор бўлмаслиги мумкин. Ва айнан шунинг учун ҳам хабардор қилинувчи ғайриижтимоий хулқ-авторли шахс, хуқуқбузарликлар содир этишга мойил бўлган, хуқуқбузарликлар содир этган қўл остидаги ходим, назоратидаги ўкувчи ва маҳалла фуқаросининг жамоа муҳитига салбий таъсир кўрсатиши мумкинлиги ҳақида огоҳлантирилади.

Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги “Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорат тўғрисида”ги **Қонунининг 12-моддаси** асосида назорат остидаги шахснинг яшаш жойидаги ички ишлар органи томонидан қуидаги ишлар амалга оширилади:

- маъмурий назорат муддати мобайнида назорат остидаги шахсларнинг ҳисобини юритиш, шу жумладан уларнинг турмуш тарзи, хулқ-автори ва ниятлари тўғрисида ахборот тўплаш;
- назорат остидаги шахснинг ижтимоий реабилитацияси ва ижтимоий мослашувига кўмаклашиш;
- назорат остидаги шахснинг ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларга риоя этиши ва яшаш, иш, ўқиши ёки хизмат жойи бўйича зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажариши устидан назоратни амалга ошириш;
- назорат остидаги шахс билан унинг хуқуқбузарликлар содир этишининг олдини олишга қаратилган якка тартибдаги профилактика ишларини амалга ошириш;
- назорат остидаги шахснинг ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларни бузганлиги ва зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажармаганлиги фактларини аниқлаш ҳамда хужжатлаштириш бўйича чоралар кўриш.

Маъмурий назоратни амалга оширишда ички ишлар органлари қўйидаги ҳуқуқларга эга:

- назорат остидаги шахснинг хулқ-автори тўғрисида иш, ўқиш ёки хизмат жойи маъмуриятидан, жамоат бирлашмасидан, яшаш жойидаги фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органидан, шунингдек фуқаролардан маълумотларни сўраш ва олиш;
- назорат остидаги шахсга уй-жой бериш ва уни ишга жойлаштириш тўғрисида тегишли давлат органларига, бошқа корхоналар, муассасалар ва ташкилотларга илтимосномалар юбориш;
- профилактик сұхбат ўтказиш учун назорат остидаги шахсни унинг яшаш жойидаги ички ишлар органларига чақириш, назорат остидаги шахснинг талаби билан бундай сұхбатларни адвокат, жамоатчилик, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органи вакиллари ёки яқин қариндошлари иштироқида ўтказиш;
- назорат остидаги шахсдан ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларга риоя этиш ҳамда зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажариш билан боғлиқ масалалар юзасидан оғзаки ва ёзма тушунтиришлар талаб қилиш (16-модда).

Маъмурий назоратни амалга оширишда ички ишлар органларининг мажбуриятлари:

назорат остидаги шахсга унинг ҳуқуқлари ва мажбуриятларини тушунтириши, шунингдек ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларни бузганлик ҳамда зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажармаганлик учун жавобгарлик тўғрисида огоҳлантириши; маъмурий назорат муддати мобайнида назорат остидаги шахсларнинг

хисобини юритиши; назорат остидаги шахсларни ўзлари танлаган яшаш жойида прописка

қилиш ва уларни ишга жойлаштириш юзасидан зарур чоралар кўриши; маъмурий назорат остидаги шахснинг ўзига нисбатан белгиланган маъмурий чекловларга риоя этиши ва яшаш, иш, ўқиш ёки хизмат жойи бўйича зиммасига юклатилган мажбуриятларни бажариши устидан тизимли равишда назоратни амалга ошириши; назорат остидаги шахс билан унинг ҳуқуқбузарликлар содир этишининг олдини олишга қаратилган якка тартибдаги профилактика ишларини олиб бориши; жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинганидан кейин яшаш жойларига белгиланган муддатда узрли сабабларсиз етиб келмаган, шунингдек яшаш жойларини ўзбошимчалик билан тарк этган ёки суд томонидан белгиланган худуд доирасидан рухсатномасиз чиқиб кетган назорат остидаги шахсларнинг қидирувини амалга ошириши шарт.

Маъмурий назоратни ўрнатиш ва амалга ошириш назорат остидаги шахснинг бошқа ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузмаслиги, унинг шаъни ва қадр-қимматини камситмаслиги керак (17-модда).

Маъмурий назоратга олинган шахсга маъмурий назорат ўрнатиш тўғрисидаги суд қарорини ва унга нисбатан қўлланилган чекланишларни назоратни амалга оширувчи ходим, профилактика инспектори, иштироқида тилхат орқали эълон қиласи. Назоратда турувчига маъмурий назорат ўрнатилганлиги тўғрисида маълум қилингандан сўнг назоратни амалга

оширувчи ходим маъмурий назорат йигма жилдига хужжатларни тўплайди ва маъмурий назоратда турувчилар учун белгиланган китобга қайд этиб рўйхатдан ўтказади.

Профилактика инспектори рўйхатдан ўтказгач у ахборот варақасини тўлдиради вилоят (шаҳар) ИИБ Ахборот марказига юборади. Шунингдек, ички ишлар органи маҳалла ҳуқуқ тартибот маскани худуд паспортига тегишли маълумотларни қайд этади. Маъмурий назорат йигма жилдига шахсга оид маълумотлар ва хужжатлар тикиб борилади. Маъмурий назорат ўрнатилиш тўғрисидаги қарор нусхасини жиноят қидирув вакилига маъмурий назорат махсус қисмини тайёрлаб юргизиши учун тақдим этади. Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлимида қайд этилиши ва ишга жойлашиши устидан бевосита назоратни амалга оширадилар.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан то ҳозирги кунгacha бўлган давр. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда бошқа фанлар билан бир қаторда, криминология фанининг ривожланиши учун тўла шароит яратилди. Жиноятчилик муаммоларини ўрганишда ўзига хос илмий асос яратилган бир қатор Farb мамлакатларининг илфор тажрибаларини ўрганиш ва таҳлил этишга имконият яратилди. Жиноятчилик муаммолари кенг қамровда ўрганила бошланди⁸. Шуларга асосланиб, профилактика инспекторининг маъмурий назорат ўрнатилган шахслар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этилишини олдини олиш фаолиятини такомиллаштириш борасида илмий тадқиқот ишларини олиб бориш, бу борада янги усул ва шаклларни ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этилишини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади.

Профилактика инспекторининг маъмурий назорат ўрнатилган шахслар томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этилишини олдини олиш фаолиятини ташкил этишда албатта биринчи навбатда ўзи хизмат кўрсатадиган худуддаги бу тоифа шахсларнинг оиласиий шароити, турмуш тарзини таҳлил этган ҳолда чора-тадбирларни белгилаши муҳим аҳамият касб этади.

Шунинг учун озодликдан маҳрум этиш жойларидан бўшатилган ва илгари судланганларни ишга жойлаштириш, уларга ижтимоий ёрдам кўрсатиш, оила аъзолари ва ўзлари ногирон бўлганда ҳамда кам таъминланган оила сифатида эътироф этилганда уларга ижтимоий нафақалар тайинланишида бошқа субъектлар билан ҳамкорликда ёрдам бериш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т., 2021й.
- 2.Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 апрелдаги «Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган айрим тоифадаги шахслар устидан маъмурий назорати тўғрисида»ги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.
- 3.Ички ишлар органларининг профилактика хизмати фаолияти: Дарслик / И. Исмаилов, М.З. Зиёдуллаев, Ж.С.Мухторов ва бошқ. Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.
- 4.Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 майдаги қонуни // URL: <http://www.lex.uz>.

МА’МУРИЙ НАЗОРАТ О’РНАТИШ КОИДАЛАРИ

O’ktamboyev Jasurbek Boxodir o’g’li

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi Kursanti

Mirtoyev Vorisbek Abdupattayevich

Mingbuloq tumani IIB Tb surishtiruvchisi Kapitan

Annotation

Ushbu maqola jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat bilan bog’liq munosabatlar, ma’muriy nazorat to‘g’risidagi qonunchilik normalari to‘g’ri qo’llanishi, ushbu shaxslar tomonidan shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularga yakka tartibda profilaktik ta’sir ko’rsatish kabilar haqida so’z boradi.

Annotation

This article deals with administrative control over certain categories of persons released from penal institutions, the correct application of legal norms on administrative control, the commission of offenses by these persons. for the purpose of prevention, it is said about such things as having a preventive effect on them individually.

Kirish:

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorati-ushbu shaxslarning turmush tarzi hamda xulq-atvorini kuzatish, ular tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish va ularda ijobiy-ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida sud tomonidan o’rnataladi. Ma’muriy nazoratni amalga oshirishda ichki ishlar organlari O’zbekiston Respublikasining «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat o’rnatish to‘g’risida»gi Qonuni va ma’muriy nazorat o’rnatish haqidagi sud qarorida ko‘zda tutilgan nazorat qoidalari hamda belgilangan cheklanishlarni qo’llash bilan birga nazorat ostidagilarga nisbatan zarur profilaktik va tezkor tadbirlarini olib boradilar. Bundan tashqari tegishli vazifa yuklatilgan organlar tomonidan qonuchilikda belgilangan talablar asosida faoliyatini amalga oshiraddilar. Shuning uchun ham O’zbekiston olib boriyotgan sud-huquq islohatlar, avvalo, qonunuyligini ta’minlash, inson huqu va manfatlarini himoya qilishga yo’naltirilgan.

O’zbekiston Respublikasining “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g’risida”gi Qonuni shu yilning 2 aprel kuni davlatimiz rahbari tomonidan imzolanib, kuchga kirdi. Ushbu hujjat jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat bilan bog’liq munosabatlarni tartibga soladi. Ma’muriy nazorat -

nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarini qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralaridir.

Ma'muriy cheklov - huquq va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimmaga majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi. Yashash joyidan sutkaning belgilangan vaqtida tashqarida bo'lishni; muayyan joylarda bo'lishni; sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan ichki ishlar organlarining ruxsatisiz chiqishni; alkogolli ichimliklar iste'mol qilishni taqilash; ro'yxatdan o'tish uchun har oyda bir martadan to'rt martagacha ichki ishlar organiga kelish ma'muriy cheklov turlaridir.

Ma'muriy nazorat sud tomonidan o'ta xavfli retsidiivist deb topilgan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik; har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki va undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslarga, sudlanganligi olib tashlangan yoki sudlanganlik holati tugallangan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat o'rnatilishi mumkin emas.

Ma'muriy nazorat jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan ko'rildi. Sudga asoslantirilgan taqdimnomalar o'ta xavfli retsidiivistlar, jazoni ijro etish muassasalarida turgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, agar ular jazoni o'tashni qasddan buzuvchilar deb topilgan bo'lsa, ularni ozod etishdan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i tomonidan kiritiladi. Jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilib, bir yil ichida ikki yoki undan ko'proq ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlarga nisbatan tegishli ichki ishlar organining boshlig'i tomonidan taqdimnomalar kiritiladi. taqdimnomalar sud tomonidan o'n kun ichida ko'rib chiqilishi kerak.

Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga o'rnatiladi. Nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi bo'limgan taqdirda, sud mahalliy davlat hokimiyati organlariga nazorat ostidagi shaxsni turar joy bilan ta'minlash choralarini ko'rish majburiyatini yuklash to'g'risida qaror chiqaradi. Nazorat ostidagi shaxsga qidiruv e'lon qilinganda va sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilganda nazorat muddatining o'tishi to'xtatib turiladi. Nazorat muddati nazorat ostidagi shaxs ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan taqdirda ichki ishlar bo'limining taqdimnomasi asosida olti oygacha, biroq sudlanganlik muddati tugallanishidan ortiq bo'limgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Ma'muriy nazoratni tugatish ham muayyan tartibga ega bo'lib, quydagicha tugatiladi:

Birinchidan, ma'muriy nazorat o'rnatilgan muddat tugaganda. Ikkinchidan, sudlanganlik holati tugallangan yoki sudlanganlik olib tashlanganda. Uchinchidan, ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilinib, jazoni ijro etish joyiga yuborilganda.

To‘rtinchidan, tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilganda. Beshinchidan, boshqa davlatga doimiy yashash uchun ko‘chib ketganda. oltinchidan, vafot etganda.

Nazorat muddatining kamida yarmi o‘tgach, ichki ishlar organi taqdimnomasi, nazoratdagi shaxs arizasi, shuningdek, mehnat jamoasi, jamoat birlashmasi va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining iltimosnomasiga ko‘ra ma’muriy nazorat sud tomonidan muddatidan oldin tugatilishi mumkin. Bu murojaat sud tomonidan o‘n kunlik muddat ichida ko‘rib chiqiladi. Shikoyatlar yuqori turuvchi sud tomonidan hal qilinadi.

Qonunda nazorat ostidagi shaxsning huquq va majburiyatlari hamda ichki ishlar organlarining majburiyatlari ham belgilab berilgan. Nazorat ostidagi shaxsga nisbatan qidiruv e’lon qilish masalasi ichki ishlar organining taqdimnomasi asosida sud tomonidan besh kunlik muddat ichida ko‘rib chiqiladi.

Ma’muriy nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar organi nazorat ostidagi shaxsga yashash joyidan tashqarida bo‘lishi yoki sud tomonidan belgilangan hudud doirasidan chiqish uchun o‘n kundan ko‘p bo‘lmagan muddatga quyidagi shaxsiy holatlar munosabati bilan ruxsatnoma beradi:

- birinchidan, yaqin qarindoshining o‘limi yoki og‘ir kasalligi. Ikkinchidan, ishga joylashish va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish zarurati. Uchinchidan, ta’lim muassasalariga qabul qilish chog‘ida kirish imtihonlarini topshirish zarurati bo‘lganda. Davolanish, tabiiy ofat tufayli yashash joyida yashash imkoniyati bo‘lmaganda, boshqa hududda ta’lim olganda ruxsatnoma bir oyga qadar berilishi mumkin.

Xulosa:

Ko‘rib o’tishimiz mummkinki,yuqoridagi chora tadbirlarning maqsadi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar tomonidan qayta huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish,ayrim toifadagi huquqbuzarlarga profilaktik ta’sir ko‘rsatish, ayrim toifadagi huquqbuzarlar uchun jazoning tarbiyaviy rolini oshirish hisoblanadi.Qolaversa, yurtimizda inson huquqlarini samarali himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1. "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to‘g‘risida"gi Qonuni 2019-yil 2 –aprel.O’RQ-532
2. „Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’grisida”gi qonun 2014-yil 14-may O’RQ-371
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati.Darslik. Akademiya 2018

ICHKI ISHLAR ORGANLARI HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI BO`LINMALARI FAOLIYATINING ASOSIY YO`NALISHLARI

Tohirov Ramazon Zokir o`g`li

O`zbekiston respublikasi IIV akademiyasi kursanti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilaktikasi xizamatining asosiy vazifalari, yo`nalishlari, shu bilan birga mahalla huquq-tartibot maskani hududida profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari, majburiyatlari va vakolatlari haqida qisqacha bayon etilgan.

Kalit so`zlar: “Mahalla posboni”, “profilatika inspektori yordamchisi”, huquqbazarliklar profilaktikasining asosiy yo`nalishlari, «Huquqbazarliklarni oldini olish kuni».

Istiqlol yillarida respublikamizda huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquqtartibotni mustahkamlash, qonuniylikni ta`minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini taminlash samaradorligini oshirish bo`yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g“risida”gi PQ-4075¹-sonli qarorining e’lon qilinishi huquqbazarliklarning oldini olish tizimida yangicha bir ko‘rinish aks etdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mazkur qarorga binoan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi tugatilib uning o‘rniga “Profilaktika inspektori yordamchisi” lavozimi tashkil etildi. Shuni ta’kidlash lozimki, mazkur qarorning qabul qilinishi profilaktika inspektorlari tomonidan profilaktika faoliyatini yanada samaraliroq tashkil etish va aholi bilan yanada yaqinroq muloqot qilishda ko‘plab qulayliklar yaratmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi «Huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g“risida» gi PQ-2833-sonli qarori asosida huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo`yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta’sirchan tizimi yaratildi. Shuningdek, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlari joriy etildi. Eng ahamiyatlisi, huquqbazarliklarni oldini olishni faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, ushbu faoliyatga lozim darajada e’tibor

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi “Jamoat xavfsizligini taminlash samaradorligini oshirish bo`yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g“risida”gi PQ-4075

qaratmaslikdek eskicha yondashuvga butkul barham berildi. Huquqbazarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek, xo‘jalik boshqaruvi organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Ushbu sohada quyidagilar davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari etib hisoblandi:

– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini, shu jumladan, aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatida faol ishtirok etish, fuqarolar murojaatlari va muammolariga bepisand munosabatda bo‘lish va byurokratik holatlarga yo‘l qo‘ymaslik orqali ta’minalash;

– huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbazarliklarning, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish hamda ularga chek qo‘yish, shuningdek, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

– idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, videokuzatuv, elektron hisobga olish va o‘zaro axborot almashish, idoralararo ma’lumotlar bazalari tizimlarini profilaktik ishlarga keng joriy etish;

– ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda, aholi bandligini ta’minalash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

– huquqbazarliklarni oldini olish muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, profilaktik ishlarni olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish;

– huquqbazarliklardan jabrlanuvchilar va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbazarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan yoki sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

– huquqbazarliklarni oldini olishga fuqarolar va jamoat tashkilotlarini, shu jumladan, ularni moddiy va boshqacha tarzda rag‘batlantirish orqali jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish.

Haftaning har payshanba kuni «Huquqbazarliklarni oldini olish kuni» etib belgilandi. Ushbu kunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda:

– huquqbazarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy nigelizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini

ommalashtirishga qaratilgan, shu jumladan, ichki ishlar organlari mahalla huquq-tartibot maskani (tayanch punkti), huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat idoralari va tashkilotlarida «ochiq eshiklar kuni»ni tashkil etish orqali tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– qonuniylik ahvolini va huquqbazarliklarni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini atroflicha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda, kriminogen vaziyat noma`qbul bo‘lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

– ijtimoiy ahamiyati muhim bo‘lgan sud muhokamalari bo‘yicha sayyor sud majlislarini o‘tkazish;

– aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o‘rganish, – huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog‘ida maqolalar, sharhlar va boshqa materialllar chop etilishini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Huquqbazarliklarni profilaktikasining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

– mamlakatdagi kriminogen vaziyat to‘g‘risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, huquqbazarliklarni oldini olishda mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, shuningdek, ularning sodir etilish sabablarini va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish;

– huquqbazarliklarni oldini olish bo‘linmalarini faoliyatini, shu jumladan, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarni oldini olish bo‘yicha faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish va uslubiy ta’minalash, kadrlar salohiyatining doimiy ravishda mustahkamlanishini ta’minalash;

– huquqbazarliklarni oldini olish bo‘linmalarida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni, shuningdek, qamoqqa olish bilan bog‘liq bo‘lmagan ehtiyyot choralarini ijro etish bo‘yicha faoliyatni belgilangan tartibda nazorat qilish;

– qonunchilikni, huquqni qo‘llash amaliyotini, shuningdek, huquqbazarliklarni oldini olish shakllari va usullarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

– huquqbazarliklarni oldini olish bo‘yicha ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalarini, o‘zga davlat organlari va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil etish.

Mahalla huquq tartibot maskani (tayanch punkt)ining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

mahallada (qishloqda) jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni bevosita amalga oshirish;

Profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari, funksiyalari hamda javobgarligi aniq belgilandi. Natijada, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo‘lmagan funksiyalarni yuklatish amaliyotiga barham berilmoqda.

Jumladan, profilaktika inspektorlari quyidagi vakolatlarni amalga oshiradilar:

– qishloqlar, ovullar va mahallalardagi kriminogen vaziyatni, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni o‘rganadilar, shuningdek, o‘rganish natijalari bo‘yicha yuqori turuvchi ichki ishlar organlariga tegishli ma’lumot va takliflarni taqdim etadilar;

– huquqbazarliklarni aniqlash va ularga chek qo‘yish, huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek, huquqbazarliklarni sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktika ishlarini amalga oshiradilar;

– o‘quvchilarining ta’lim muassasalaridagi davomatini nazorat qiladilar, ijtimoiy xavfli holatda bo‘lgan va ta’lim muassasalariga qatnamaydigan voyaga yetmaganlar va yoshlar, shuningdek, ushbu toifadagi shaxslarning ota-onalari bilan profilaktika ishlarini olib boradilar;

– taqiqlangan tashkilotlar hamda terrorchilik, ekstremistik va boshqa g‘ayriqonuniy va buzg‘unchilik yo‘nalishidagi guruhlar faoliyatiga aloqador shaxslarni aniqlaydilar;

– o‘rnatilgan tartibda profilaktik hisobga olishni, shu jumladan, huquqbazarliklar, ularni sodir etgan shaxslar va huquqbazarliklardan jabrlanganlar hisobini yuritadilar;

– jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda surishtiruv, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan, jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotgan, bedarak yo‘qolgan shaxslarni hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda boshqa shaxslarni qidirish, shuningdek, shaxsi noma’lum mурдаларни shaxsini aniqlash bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadilar;

– aholi bilan muntazam ravishda mavjud muammolarni o‘rganish va ularni hal etishning maqbul yo‘llarini aniqlashga qaratilgan uchrashuvlar o‘tkazib boradilar;

– mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlarga huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan, shu jumladan, infratuzilmani rivojlantirish va yoshlarning bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazishlarini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritadilar;

– davlat organlari, jamoat va boshqa tashkilotlar rahbarlariga huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha taqdimnomalar kiritadilar;

– huquqbazarliklardan jabrlangan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbazarliklar sodir etishga moyil hamda huquqbazarlik sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagи yordamlarni ko‘rsatish, shuningdek, ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan choralarini amalga oshiradilar;

– huquqbazarliklarni oldini olish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularga qonunga hurmat hissini singdirish bo‘yicha tadbirlarni, shu jumladan,

davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyatni institutlari vakillarini jalgan holda, o'tkazadilar;

– jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladilar, ularning murojaatlarini, shu jumladan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbazarliklar haqidagi xabarlarini qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqadilar;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan va ichki ishlar organlari ma'muriy nazoratiga qo'yilgan shaxslarga tarbiyaviy-profilaktik ta'sir choralarini, ularga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklar qo'llashni amalga oshiradilar;

– fuqarolar, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtaida qonun hujjatlari talablariga rioya etish, huquqbazarliklarni oldini olish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarida tushuntirish ishlarini tashkil etadilar;

– doimiy va vaqtincha propiskasiz yoki turgan joyi bo'yicha hisobda turmagan yoxud boshqacha tarzda pasport-viza rejimi talablarini buzgan holda yashayotgan shaxslarni aniqlaydilar, fuqarolarning turar joylari ijarasi yoki ulardan tekin foydalanish to'g'risidagi shartnomalarning mavjudligini tekshiradilar;

– turar joy egalari va xususiy mulkdorlar shirkatlari tomonidan uy-joy fondi va uy atrofi hududlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga, shu jumladan, ko'p qavatli uylarning chordoq va yerto'lalari hamda boshqa qo'shimcha bino va xonalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi bo'yicha choralar ko'radilar;

– egasiz turar joylarni aniqlash va ularning saqlanishini nazorat qilish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'radilar;

– sanitariya, atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va yong'in xavfsizligi sohalaridagi qonunchilikka rioya etilishi bo'yicha choralarini amalga oshirishda ishtirok etadilar;

– sud qarorlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etilishida jamoat tartibini ta'minlashda ishtirok etadilar;

– tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda holatlarning oqibatlarini bartaraf etishda jamoat tartibini ta'minlaydilar.

Sohadagi eng muhim vazifalardan yana biri – profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlashga, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirishga qaratish hisoblanadi. 2017-yilda mamlakatimizda «jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha jamoatchilik institutlari bilan hamkorlikda olib borilayotgan keng ko'lamli profilaktik tadbirlar tufayli 1 ming 243 ta mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmadi».

Sohadagi eng muhim vazifalardan yana biri – voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishslash tizimini ularni Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish hisoblanadi.

Shuningdek, profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan, o'zlarining faoliyati haqida jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo'lga qo'yish, ularning aholini tashvishga solayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo'lish holatlariga chek qo'yish sohadagi ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Xalq hokimiyatini so'zda emas, amalda ta'minlash bugungi davrning asosiy talabiga aylandi. Mamlakatimizda «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» degan ulug'vor g'oyani amalda to'liq ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlar yaratilmoqda. Davlat idoralari, mansabdor shaxslarining mas'uliyati kuchaytirilib, jamoatchilik oldida hisob berishing ta'sirchan mexanizmlari joriy etilmoqda.

O'tgan qisqa davr ichida ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalarining faoliyati samaradorligini oshirish va uning faoliyatini tubdan yaxshilash, yangilash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tahliliga tayanib, shuningdek, ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilatikasi bo'linmalarining faoliyatiga yangi tartiblar va mexanizmlarning joriy etilganligini inobatga olgan holda aytish mumkinki, huquqbazarliklar profilaktikasi sohasidagi islohotlarning birinchi bosqichi yakunlandi. Ushbu bosqich yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, sohada dastlabki samaralar kuzatilayotganligini qayd etish joiz. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarni oldini olish sohasida salmoqli natijalarga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // URL: <http://www.lex.uz.;>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // URL: <http://www.lex.uz.;>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // URL: [http://www.lex.uz.](http://www.lex.uz.;)
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // URL: <http://www.lex.uz.;>
5. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydag'i «Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni // URL: <http://www.lex.uz.;>
